

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

XALQ IJODIYOTI FAKULTETI

**MADANIYAT VA SAN`AT MUASSASALARINI TASHKIL E`TISH VA
BOSHQARISH KAFEDRASI**

**O`ZBEKISTON PREZIDENTI I.A. KARIMOV ASARLARIDA MA`NAVIY VA
MA`RIFIY MASALALARGA BO`LGAN MUNOSABAT**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi 4 kurs bitiruvchi talabasi Narbayeva
N.T.

**ILMIY RAHBAR
katta o‘qituvchi O‘rozov A.**

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi
_____ sonli bayonnomasi «____» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014

M U N D A R I J A

KIRISH.....	2
-------------	---

I BOB. I. A. Karimov asarlarida o‘zbek milliy ma'naviyati masalasi

1.1. O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov asarlarida ma'naviyat masalasiga bo‘lgan e'tibor va uning jamiyat hayotidagi e'tirofi.....	6
1.2. “Yuksak ma'naviyat yengilmas - kuch” asarining milliy o‘zlikni anglash va ma'naviy hayotda tutgan o‘rni	15

II BOB. O‘zbekiston taraqqiyotining asosi - ma'rifiy hamkorlik ekanligi

2.1. Mustaqillik va ma'rifat masalasining I.A. Karimov asarlaridagi mohiyati va mazmuni	36
2.2. I.A.Karimov O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining rahnomosi	44

Xulosa.....	62
-------------	----

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	65
---	----

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Istiqlol sharofati bilan o‘zbek xalqi o‘z madaniyatiga, o‘zligiga ega bo‘ldi. Ta’rixiy an’ana va jahonning ilg‘or tajribabasiga tayanib qisqa davr mobaynida xalq ma’naviyati inqiroz iskanjasidan olib chiqildi. Ulug‘ ajdodlar, shu muqaddas zaminda yashagan, bashariyat tarixida ulkan iz qoldirgan allomalar, olimlar - bobokalonlaridan qolgan merosni asrab-avaylab, e’zozlab, xalqning milliy mafkurasini shakllantirish, an'analarini qadrlash, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini tiklash borasida katta ishlar amalga oshirildi.

Kishilik jamiyati el-yurtiga, vataniga sadoqatli, iymon-e’tiqodi butun, mard va jasur, malakasi yetuk, ma’naviyati yuksak insonlar bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bu ulug‘vor, betimsol boylik har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbaidir. Bu kabi ishlar mamlakatimizda ma’naviy ma'rifiy sohada olib borilayotgan faoliyat mazmunini tashkil etish bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliji quyidagilar bilan belgilanadi:

- Mustaqillikni ilk kunlaridayoq ma’naviyat va ma'rifat jamiyat hayotini yangilanishi, mustaqillikni mustahkamlashning eng samarali vositasi ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e’tirof etilgan. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”asarida mustaqillikning qo‘lga kiritish va ilk ozodlik nasimlari esa boshlagan bir paytda mamlakat ijtimoiy siyosiy, ma’naviy ma'rifiy sohasidagi islohotlarning yetakchisi sifatida xalq farovonligi uchun barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olganligini ko‘rish mumkin. Mazkur asardagi tarixiy materiallarning kattagina qismi bevosita milliy tiklanish, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan. Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analarini asrab avaylash va rivojlantirish, mustabid tuzum davrida ta’qiqlab qo‘yilgan Navro’z bayrami Amazon va Qurbon hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni qaror toptirish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband

va boshqa aziz avliyolarimiz, Amir Temur, Jololiddin Manguberdi, Bobur singari ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga nisbatan tarixiy adolatni tiklash haqidagi fikr mulohazalar, qaror va farmonlar shular jumlasidandir.¹

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlarida ma’naviy ma'rifiy sohaga bo‘lgan munosabat nafaqat ma’naviyat va ma'rifat ishlarining nazariy mohiyatiga qaratilgan, balki, xar bir davr ruhi bilan yondoshilib, jamiyat a'zolarining ong, tafakkuridagi o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy islohotlarga hamohang ishlab chiqilgan.

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ma’naviyat va ma'rifat borasidagi qarashlari ajdodlarimizning boy madaniy merosidan bahramand, ularning purma'no o‘gitlari mazmuni bilan sug‘orilgan.

• Bugungi mafkuraviy globallashuv sharoitida jamiyat a'zolarining yot mafkuraviy tahdidlardan asrash, milliy o‘zlikni anglash va mafkuraviy immunitetini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlaridan keng foydalilanayotgan bir paytda uning mazmun mohiyatini jamiyat a'zolariga targ‘ib qilish zaruriy vazifadir.

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” nomli ma’ruzasida jamiyat hayotida madaniy ma'rifiy taraqqiyot uchun zarur shart sharoit yaratilganligi, jamiyatning yosh a'zolarini ta'lif tarbiya olishi uchun zarur shart sharoit yaratish va axborot bilan ta'minlanish darajasini o‘sib borayotganligini alohida ta'kidladi. Jumladan, umumta'lif maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Eng zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan, 46 ming 300 dan ortiq o‘quvchiga mo‘ljallangan 166 ta yangi maktab qurildi va rekonstruksiya qilindi, 151 ta maktab

¹ Karimov I.A., O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O‘zbekiston, 2012. –B. 19.

kapital ta'mirlandi. Mamlakatimizdagi 852 ta maktabda zamonaviy o'quv kompyuter sinflari tashkil etildi. Hozirgi vaqtida 9 ming 400 dan ziyod umumta'lif maktabi yoki jami maktablarning 96 foizi ZiyoNet elektron axborot tarmog'iga ulanganini qayd etish lozim.²

Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'nnaviy ma'rifiy masalalarga bo'lgan munosabatni tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. I.A.Karimovning qator asarlarida ma'nnaviyat va ma'rifikat metodologiyasi ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'nnaviy ma'rifiy masalalarga bo'lgan munosabatni ilmiy asosda o'rganilganligini A.Begmatov³, M.Qarshiboev⁴, A. Erkaev⁵, Safo Ochil⁶, A.Saidov, U.Tadjixonov⁷, N.Jo'raev⁸, Leonid Levitin, Donold S, Korlayl⁹ risolalarida kuzatish mumkin.

Malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'nnaviy ma'rifiy masalalarga bo'lgan munosabatni o'rganishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ma'nnaviyat masalasiga bo'lgan e'tibor va uning jamiyat hayotidagi e'tirofini yoritish;

² Karimov I.A., 2012 -yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. // Xalq so'zi. 2012 yi | 19 may

³ Begmatov A., ma'nnaviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi.-T.: Sharq, 2000.

⁴Qarshiboyev M. Ma'nnaviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'nnaviyat, 2008.

⁵ Erkaev A. Ma'nnaviyat va taraqqiyot. -T.: Ma'nnaviyat, 2009.

⁶ Safo Ochil. Mustaqillik ma'nnaviyati va tarbiya asoslari.-T.: O'qituvchi, 1995.

⁷Saidov A., Tadjixonov U.,I.A. Karimov milliy davlatchilik,istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999.

⁸Jo'rayev N., Agar ogoh sen... –T.: Yozuvchi. 2001.

⁹ Leonid Levitin, Donold S. Korlayl. Islom Karimov- yangi O'zbekiston Prezidenti.-T.: O'zbekiston. 1996.

- “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarining milliy o‘zlikni anglash va ma'naviy hayotda tutgan o‘rnini yoritish;
- mustaqillik va ma'rifat masalasining I.A. Karimov asarlaridagi mohiyati va mazmunini tadqiq etish;
- I.A.Karimov O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining rahnomosi sifatidagi faoliyatini ko‘rsatib berish.

Mavzuning nazariy-uslubiy asoslari. Mavzuning yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan haqqoniylik, xolislik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g‘oya va fikrlar mavzuni yoritishda nazariy uslubiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv Malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

I.BOB. I.A. Karimov asarlarida o‘zbek milliy ma'naviyati masalasi

1.1. O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ma'naviyat masalasiga bo‘lgan e'tibor va uning jamiyat hayotidagi e'tirofi

Bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzlusiz e'tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi va ma'ruzalari, maqola va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda: - “...biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog‘lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz»¹⁰. deb uqtiradi Islom Karimov

Erksevar o‘zbek xalqi mustaqillik tufayli o‘z yeri, o‘z tili, o‘z diniga ega bo‘ldi; milliy g‘ururi, izzat obro‘sni tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizdan bahramand bo‘lmoqdamiz. Mustaqillik va ma'naviyat bir-biriga g‘oyat bog‘liq tushunchalardir. Ma'naviyati buyuk xalqni qul qilish, abadiy istibdod zulmi ostida saqlash mumkin emas. Bunday ma'naviyatning kamol topishi, qalblarga singishi uchun Mustaqillikni mustahkamlash ham lozim bo‘ladi. Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma'naviyat zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma'naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi.

¹⁰ Karimov I.A. Kelajakni jasoratli odamlar quradi. // Xalq so‘zi. -1999 yil, -17-fevral.

Prezident shu bois ham ma'naviyat va ma'rifatga doimo katta e'tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli o'zbek xalqi o'zligini tanib, o'z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqining hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohatlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ma'naviy yangilanish metodologiyasi o'ziga hosligi bilan ajralib turadi va ma'naviyat borasidagi faoliyatning nazariy asoslarini tashkil qiladi. Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning xaqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir...»¹¹. Haqiqatan faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohatlarga tayyor bo'lishi mumkin.

Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu sohada o'zi bo'larchilik va lo'ttibozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat

¹¹Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. -B. 299-300.

hayotida ma'naviy bo'shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir. Bu bo'shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inqirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Bunga keyingi vaqtarda yuz bergan mudhish voqeyalar yaqqol misol bo'la oladi. Shu sababli tarixiy burilish davrlarida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish lozim. Mamlakatimiz rahbariyati buni to'g'ri anglab, bunday holatlarning qalqib yuzaga chiqishining oldini faqat odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iyomon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mistaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash orqaligina olish mumkinligini, mustaqillik tafakkuri, ma'naviyatini shakllantirish, maqsad, vazifa, vositalari yo'llarini izlab topish, hayotga joriy etish orqali hal etish mumkinligini ta'kidlab kelmoqda¹². Zotan, yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat - keljak poydevori» degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

Ma'naviyatli va e'tiqodli kishilar o'z maslagi, vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyordirlar. I.Karimov shaxsi ham bu xususiyatlardan xoli emas.

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Shu ma'noda preident Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzalaridagi quyidagi fikrlariga e'tiborni qaratmoq lozim: «Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - iyomon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebafo merosi va zamonaviy tafakkurga

¹²Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir. -T.: O'zbekiston, 1998. -B. 13-14.

tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat»¹³. Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatlari va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech kechiktirmay, ikkilanmay ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir», degan o'gitiga amal qilishimiz zarur.

Endilikda, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Mamlakat aholisining texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanoti bo'ladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog'lik, zamon, mustaqil taraqqiyot, bozor munosabatlari davri talabidir.

Ma'naviyatning umrboqiyligi barchaga ayon. Shu jihatdan olganda, ma'naviyat yo'q joyda taraqqiyot yo'q. Zero, shu murakkab davrda iqtisodiy muammolarni hal etish bilan birga ma'naviyatni ham unutmaslik juda muhim. Yozuvchilar, ziyorolar doimo xalqning ma'naviy barkamolligi, insoniy qadri toptalmasligi uchun jon kuydirib kelgan.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy soha - sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolga tushib qoladi. Biz uchun ma'naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa

¹³ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.-T.:O'zbekiston, 1998.-B. 20.

bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham biz xalqning ma'naviyatiga zarar yetkazgan holda mablag‘ni tejay olmaymiz. Hozirgi murakkab davrda mazkur tarmoqlarni ishonchli tarzda qo‘llab-quvvatlash, ularda ishlovchi kishilarning mehnatiga munosib baho berish, ularni kuchli ijtimoiy himoyalash, ularning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish talab qilinadi. Bu shart sharoitlarni yaratishda nafaqat mamlakat rahbari, siyosiy arbob, balki jamiyatning yuksak ma'naviyatli a'zosi sifatida ham I.Karimov siymosi xalq ruhiyatidan alohida o‘rin olgan. Chunki, bu shaxs milliy istiqlol g‘oyasini mazkur jarayonning asosiy quroli deb baholaydi: -“...milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliqa, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishi lozim.¹⁴

Tafakkurning mafkuraviy aqidalardan xoli bo‘lgan, har bir mamlakatning va butun jahon ma'rifatparvarligining sifat jihatidan yangi holatga o‘tish shakllari va yo‘llarining xilma-xilligini ko‘rsatib beradigan yangi turi va uslubini yaratish zarurati yetildi. Hozir ijtimoiy, shu jumladan iqtisodiy rivojlanishning hammabop, har qanday mamlakat uchun birday tavsiya etish mumkin bo‘lgan andozalari yo‘qligi aniq- ravshan bo‘lib qoldi. Ijtimoiy rivojlanishning turli madaniy, ma'rifiy, tarixiy an'analarning nodirligi va o‘ziga xosligiga tayanadigan shakllari va usullari xilma- xilligi umum tomonidan e'tirof etildi. Yetilgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning jiddiyligi, ularning o‘ziga xos xususiyati shu muammolarni hal etishga alohida-alohida yondashuvlarni belgilab olish zaruratini taqozo qiladi. Hayot sharoiti va musulmoncha turmush tarzining milliy xususiyatlari, Sharq madaniy olamiga mansublik ham shuni talab qiladi. O‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlash murakkab, tarixiy ahamiyatga molik va mas'uliyatli palladir. Hozir yashayotgan o‘zbekistonliklarninggina emas, balki ularning bir qancha kelajak avlodlarining

¹⁴ Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik./ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida so‘zlangan nutq, 1993 yil 6 may

ham taqdiri ana shu yo‘l nechog‘lik to‘g‘ri tanlab olinishiga bog‘liqdir. Respublika tanglik holatlarini qanchalik tez bartaraf etishi, yakkahokimlik tizimining illatlaridan qutulishi, rivojlangan ma‘rifatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishi shu bilan belgilanadi. Bu jarayonda I.Karimov ulug‘ mas‘uliyatni his etadi:-“Bizning vazifamiz, avvalambor, mana shu ma‘naviyatimiz sarchashmalarini va bobokalonlarimizning boy an'analarini davom ettirishdir. Ma‘naviyatimizni yaratayotganlarni: yozuvchilar, shoirlar, madaniyat va san‘at ijodkorlarini, xalq talantlari va iqtidorli yoshlarni doimo qo‘llab-quvvatlamog‘imiz lozim. Buning uchun xarajatlarimizni ayamasligimiz darkor.¹⁵

Sho‘ro saltanati parchalanib ketgach, hamma mustaqil respublikalar kabi Rossiya ham o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Ana shu yo‘l tanlashda, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda shoshma-shosharlik qilindi. Ham siyosatda, ham iqtisodda, ham ma‘naviyatda odamlarning ruhiyati, dunyoqarashiga mos yo‘l tanlanmadni. Birovlarning gapiga kirib, "shok terapiyasi" deb, islohotlar sun‘iy ravishda tezlashtirildi. Ba’zi ijtimoiy tabaqalarning e’tiqodi nazarga olinmadni, tarixi oyoqosti qilindi. Odamlarning turmush darjasini pasaydi. Natijada odamlar o‘rtasida ziddiyat, jamiyatda bo‘linish ro‘y berdi. Hokimiyat talashish, odamlarning boshini aylantirib o‘ziga qaratish boshlandi. Buyuk ajdodlarning beqiyos ma‘naviy merosi, ming yillik tarix va madaniyatga asoslangan ma‘naviy hayot qayta tiklandi. Ma‘naviyat va ma‘rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko‘plab chop etish, ayniqsa madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o‘rganish muhimdir. Agar iqtisodiy o‘sish, taraqqiyot - jamiyatning tanasi bo‘lsa, ma‘naviyat- ma‘rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma‘rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va keljakka ishonadigan

¹⁵Karimov I.A., O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari./ Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 tom. T. O‘zbekiston, 1994. –B. 56.

insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonni tarbiyalash esa ijtimoiy fanning muqaddas burchidir. Zero, I. Karimov ta'kidlaganidek, “Milliy mustaqillik mafkurasi, ma'naviy va madaniy qadriyatlar, ma'rifat va adolatga intilish, O‘zbekiston istiqlolining kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish jamiyat va har bir fuqaro hayotida juda muhim o‘rin tutadi.¹⁶

I. Karimov iqtisod va ma'naviyatni mushtarak holda tasavvur etadi. Chunki iqtisodiy tanazzulga uchragan jamiyatning ma'naviyati ham qashshoqlashadi. Yoki aksincha, ma'naviy qashshoq jamiyat hech qanday islohotlarga qodir bo‘la olmaydi. Ana shu jihatdan qaraganda, Xorazm noyob madaniyat, nafis san'at, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va she'riyat maskani, dunyoviy ilm o‘choqlaridan biri ekani quvonchli hodisa. Xorazm viloyati zaminida kamol topgan ne-ne allomalar, fozilu fuzalolar, mutafakkiru ma'rifatparvarlar Vatanimiz shon-shuhratini butun dunyoga taratgan. Buyuk ajdodlarimiz al-Beruniy, al-Xorazmiy va boshqa o‘nlab buyuk insonlarning nomlari butun dunyo xalqlari uchun mo‘tabar va muqaddasdir. Yurtda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik eng katta boyligimiz ekanini yana bir karra namoyon etdilar. Bu quvonarli holdir, biz izchillik bilan amalga oshirayotgan ishlarning natijasi, mustaqillik yillarda qo‘lga kiritgan eng katta yutug‘imizdir. Mustaqillik bayrami kabi qutlug‘ sanalarning sharofati shundaki, bayram bahona har bir inson bosib o‘tilgan yo‘lga nazar tashlaydi, unda erishilgan yutuqlardan quvonadi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardan saboq chiqaradi. Demoqchimanki, istiqlolimizning besh yilligi taraqqiyotimiz yo‘lidagi muhim bir bosqich, ta‘bir joiz bo‘lsa, yangi bir marradir. Endi ana shu marradan turib kelajak rejalarini, iqtisodiyot, ma'naviyat sohasi oldida turgan vazifalarni belgilab olish darkor.

Yuksak ma'naviyatli, komil insonlarning jismoniy sog‘lomligi ham I. Karimovning ma'naviy ma'rifiy sohaga oid qarashlarini asosini tashkil etadi. Jumladan, “...

¹⁶ Karimov I.A., Bunyodkorlik yo‘lidan.4-tom -T.: O‘zbekiston, 1996. –B. 45.

sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqat sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina qura oladi.”¹⁷ – deb baholaydi.

Xalqning ilm-ziyo salohiyati, teran ma’naviyati va bunyodkorlik qudratiga, shu bilan birga, jahon umumbashariy yutuqlariga asoslangan holda, taraqqiyotimizning maqsad va marralarini belgilab oldik. Ma’naviyatning sehrli kuchi shundaki, u inson qalbida ezgulik, saxovat, mehr- muruvvat kabi olijanob fazilatlarni uyg‘otadi. Milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o‘tishda uning ruhini ko‘tarib, suyanch va tayanch bo‘ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko‘plab hayotiy va ma’naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne’matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e’tiqod tufayli yuksak ma’naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo‘lini yoritadigan mayoqdir.¹⁸

I.Karimov hech qachon ma’naviyatni moddiyotdan, moddiyotni ma’naviyatdan ustun bilmagan, aksincha bu ikki omilni insonni ikki qanoti bo‘lishi lozimligini uqtiradi. - “Agar mendan, hozir nimalarga ko‘proq e’tibor beryapsiz: iqtisodiyotdagi va davlat tuzilmalaridagi islohotlargami yoki ma’naviyat masalalariga, axloqiy negizlar va qadriyatlargami, har bir inson vujudidagi yuksak orzular va shu negizlarni tarbiyalashgami, deb so‘rasalar, ularning birini-ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi, degan bo‘lur edim. Moddiy asossiz ma’naviy fikr yashay olmaydi, ma’naviyatsiz moddiy asos ham rivojlanma olmaydi. – deydi I. Karimov .

¹⁷Karimov I. A. Sog‘lom avlod - xalqimiz kelajagi. -T.: O‘zbekiston,1997. -B. 67.

¹⁸Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar./ mas‘ul muharrir Bo‘ronov K. –T.: O‘zbekiston. 2001. -B. 7

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, milliy bayramlar xalq ma'naviyatining jahon hamjamiyatiga namoyon qiluvchi vosita, millat madaniyatining ajralmas bo'lagi sifatida qaraydi. Jumladan, Navro'z xalqimizning yuragini va yorug' tuyg'ularini, o'lmas ruhi va ma'naviyatini o'zida yorqin namoyon etadigan eng qadimiy, eng ardoqli, asl milliy bayramimizdir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz, - deya baho beradi.

Haqiqiy inson yetuk mutaxassis bo'lish bilan birga, yuksak ma'naviyat egasi ham bo'lishi lozim.¹⁹ Bu asli bugungi kunning talabi va jamiyat hayotini har tomonlama tahlil etishga qodir komil insonning qarashlaridir.

Xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviyatining yuksalishi bilan uzviy bog'lik masaladir. Shuning uchun ham bu jarayonda obidalarni nafaqat qayta tiklash va ta'mirlash, ayni vaqtida ularning yon- atrofidagi o'ziga xos tabiiy muhitni asl holida saqlab qolish kabi masalalarni ham biz e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islam dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuxmat va bo'xtlonlardan himoya qilish, avvalambor, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islam madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida ma'naviyat va ma'rifat ahli, olimlar, ziyorilarimiz, ommaviy axborot vositalari vakillaridan, bir so'z bilan aytganda, shu Vatanga mehr qo'ygan va o'zini shu yurt farzandi deb hisoblaydigan har bir insondan faollik va fidoyilikni talab etadi.²⁰

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi haqida gapirganda, tabiiyki, xalqimiz ma'naviyatining, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan, kerak bo'lsa, uning o'zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an'analarga

¹⁹Karimov I.A., Inson uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom. -T.: O'zbekiston. 2006. -B. 34.

²⁰ Karimov I.A.,Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-tom. -T.: O'zbekiston, 2007. -B. 76.

ega adabiyotimizni asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og‘ir va mas’uliyatli mehnati barchamizning ko‘z oldimizdan o‘tadi. Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma’naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatni ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da’vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijodiy jarayonning, adabiyotning asosiy bunyodkori — bu yozuvchi va shoirlardir. Lekin bu ishni faqat ularning yelkasiga tashlab qo‘ymasdan, jamoatchilik, butun jamiyatimiz unga o‘z hissasini qo‘shishi kerak.

1.2. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarining milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy hayotda tutgan o‘rni

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo‘lib kelgan ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama, keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etilgan. Asarda istiqlol yillarida mamlakatda milliy ma’naviyatni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritilgan Islom Karimov “Ma’naviy tahdid” tushunchasiga e’tibor qaratib, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion hurujlar majmuini anglatadigan atama ekanini isbotlaydi²¹. Turli mafkuraviy xurujlarning

²¹Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 14.

milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishi, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-onas, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishi zarurligini uqtiradi. Buning uchun esa ota-onalar, ustoz-murabbiylar ushbu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligi, yoshlar tarbiyasida aslo beparvolikka berilish mumkin emasligi ta’kidlanadi.

Shuningdek, kitobda zamnaviy taraqqiyotga asoslangan turmush tarzining qadimiyligi an'analarimiz bilan uzviy bog‘lanib ketadigan jihatlari atroflicha yoritib beriladi.²² Muqaddima nihoyasida ma'naviyatimizni asrash va unga tahdid soladigan xurujlarga qarshi amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifa va chora-tadbirlar borasida, avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiyligi tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usini his etib yashashi zarurligi yana bir bor uqtiriladi.

Inson va jamiyat taraqqiyotining muhim omili - ma'naviy va moddiy hayat mushtarakligi, aynan ushbu tamoyillar bir-birini inkor etmasligi, aksincha, bir-birini to‘ldirishi hamda mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo‘lib xizmat qilishi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur asarda “Ma'naviyat” tushunchasiga I.Karimovning yangicha ta'rifi bayon etiladi. Jumladan, “ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”²³. Ushbu ta'rifda insonning botiniy va zohiriyligi tabiatini, asl mohiyatini

²² Rasulov A. Global jarayonlar va ma'naviyat./Ma'naviy yuksalish yo‘lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 6.

²³ Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 19.

belgilovchi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarning o‘zaro mushtarakligi asoslab berilgan.

“Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asari haqida fikr bildirar ekan M.Quronov “Kitobdan kelib chiqadigan chuqr mantiqiy xulsalardan biri shunday: ma'naviyat faqat yuksak darajada bo‘lgandagina haqiqiy yengilmas kuch ga aylanadi.”²⁴ – deb baholaydi.

“Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asari qariyb 150 yil davom etgan mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida toptalgan ma'naviy-ma'rifiy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash hamda ularni zamon talablari asosida rivojlanТИRISH o‘ta muhim hayotiy zaruratga aylangani, istiqlol yillarida bu masala amalga oshirilgan tub islohotlarning negizini tashkil qilganini alohida ta'kidlaydi. Asarda o‘tgan davr mobaynida eski tuzumdan og‘ir meros bo‘lib qolgan illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko‘hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiyadolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan oljanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelgani ko‘plab misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlanТИRISHGA, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinishi haqidagi tarixiy haqiqatdan xulosa chiqarishga da’vat qiladi.

Muallif har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urfodat va an'analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo‘lmasligini alohida ta'kidlagan. Shundan kelib chiqqan holda, ma'naviy meros, madaniy

²⁴.Quronov M “O‘zbek mo‘jizasi” ning yengilmas kuchi./Ma'naviy yuksalish yo‘lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 26.

boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar bu boradagi eng muhim omillar sifatida keltirilgan.

Kitobda bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lgani, bu tabarruk zaminda azal-azaldan madaniy va ma’naviy ildizlari teran, yuksak intellektual salohiyatga ega xalq yashab kelgani, ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, dunyoviy va diniy ilmlarning umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgani, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimiz ekani g‘urur bilan ta’kidlanadi. Xususan, bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan «Avesto»dek bebaho ma’naviy obidaning o‘rni va ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladi. Muallif «Avesto»ning tub ma’nomohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan tamoyilni hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboq manbai deya ta’riflaydi²⁵.

Kitobda xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish «Alpomish» dostoni haqida alohida so‘z yuritar ekan, muallif uni qahramonlik qo‘srig‘i sifatida baholaydi. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh baytidir, deb urg‘u beradi muallif. «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq berishini, ma’naviy tarbiya uchun ulkan ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi.

²⁵Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. - B. 31.

Xalqimiz uchun eng qadimiy, milliy bayram - Navro‘z ayyomini hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz sahovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, oljanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi deb ta’riflaydi. Uni xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat, ezgulik va himmat kabi yuksak xususiyatlarni shakllantiruvchi omil sifatida faxr bilan tilga oladi.

Ma'naviyatning yuksalishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ulkan mezon – muqaddas dinimiz haqida ham alohida to‘xtalgan. Islom dinini odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof vaadolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimi tarzida yuksak baholaydi. Shu bilan birga, bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayriyoh va tarafдорлари ko‘payib borayotganiga e’tibor qaratadi. Shu ma’noda, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashda uning ta’sirini saqlash maqsadida muqaddas islom dinimizni turli xil g‘arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, asrabavaylash, asl mohiyatini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifalarini bayon qiladi.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘sghan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritib, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sulton» dek nom bilan shuhrat qozongan Imom Buxoriy to‘g‘risida, uning «Al-jome' as-sahih» kitobining ahamiyati haqida yuksak ehtirom bilan so‘z yuritadi.

Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy kabi ulug‘ zotlarning ulkan aql-zakovati va matonati haqida ham batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Asarda butun islom olamida ma'lum va mashhur bo‘lgan Burhoniddin Marg‘inoniy, Abdulkholiq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ alloma zotlarning muborak siymolari haqida yuksak ehtirom bilan fikr yuritilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston zaminida yetishib chiqqan yana bir guruh qomusiy olimlarning bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari haqida, xususan, Muhammad Muso Xorazmiy faoliyatining umuminsoniy taraqqiyot rivojiga ulkan ta’siri, Ahmad Farg‘oniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob»ining ilmiy ahamiyati, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy jasorati, Ibn Sinoning buyuk asarlari, Mahmud Zamahshariyning olamshumul shuhrat to‘g‘risida hayajon bilan so‘zlaydi.

Buyuk bobolarimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritar ekan, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to‘xtaladi, uning aql-idrok,adolat va yuksak ma’naviyat bilan yo‘g‘rilgan faoliyatini ibrat tariqasida keltiradi, nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug‘bekning ishlarini buyuk ma’naviy jasorat timsoli sifatida e’tirof etadi.

“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarini o‘rganar ekan, Mahmud Toirov - “Agar biz A. Navoiy, Amir. Temur, Imom Buxoriy, Imom moturiddiy singari buyuk ajdodlarning vorislari ekanmiz, bizning ma’naviy jihatdan zaif bo‘lishga xech qanday haqqimiz yo‘q”²⁶deb baholaydi.

Asarda o‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri – Alisher Navoiy haqida faxr bilan so‘z yuritilgan. Xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etgan bu ulug‘ zotni muallif avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultonii²⁷ deb ta’riflaydi.

Shuningdek, kitobda chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid ma’rifatparvarlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab fidoyi insonlarning faoliyati haqqoniy tarzda ochib berilgan. Yaqin davrda yashab ijod qilgan Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev va Sa‘di Sirojiddinov, Obid

²⁶Toirov M. Ma’naviyat qalb chirog‘i. / Ma’naviy yuksalish yo‘lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 31.

²⁷Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. - B. 47.

Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G‘ulomov va Bo‘riboy Ahmedov, Oybek va G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo‘jaev, Razzoq Hamroev va boshqa ko‘plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblari faoliyati va hayoti hurmat bilan esga olinadi.

Muallif millatimiz ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta'siri beqiyos ekanini ta'kidlaydi, uni inson dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, oljanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori shakllanadigan makon deb baholaydi. Muallif yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo‘rg‘oni bo‘lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz ekanini uqtiradi.

Kitobda ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda mahallaning roli va ta'siri katta ekani qayd etiladi, yurtimizdagagi ma'naviy iqlim va vaziyatning o‘ziga xos ko‘zgusi bo‘lgan mahallalarga ma'naviy-ma'rifiy olamimizni yuksaltirishda yanada ko‘proq imkoniyat berish zarurligi qayd etiladi.

Ma'naviyatni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglashga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta’lim-tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog‘liq jarayonni tahlil qiladi. U uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig‘ilib qolganini, o‘zi shaxsan ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida bunga amin bo‘lganini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham bu o‘ta og‘ir va mas’uliyatli, ammo hal qilishni aslo paysalga solib bo‘lmaydigan ishni qadam-baqadam, izchillik bilan bajarish uchun astoydil ish olib borilganini ta'kidlaydi.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o‘zini ko‘p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobjiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni yangi ta’lim modelining kuchli samarasiga

erishamiz, degan fikr bugun amalda o‘z tasdig‘ini topayotganini muallif mammuniyat bilan e’tirof etadi.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo‘lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliv o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma’rifat sirlarini o‘rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan minglab o‘quvchilar, katta hayotga yo‘llanma olayotgan, o‘z iste’dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlari misolida ana shunday orzu-intilishlari bugunning o‘zida o‘z hosilini berayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Eng muhimi shundaki, «portlash effekti»ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o‘tishi bilan, tobora kamol topayotgan sog‘lom va barkamol avlodning hayotga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Asarda ma’naviyatning inson va jamiyat hayotidagi mohiyati haqida so‘z ketar ekan, bu borada asrlar davomida qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan muhim bir masalaga, ya’ni odamlarning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy hamda ma’naviy asoslar uyg‘un bo‘lgandagina baxtli hayotga erishish mumkin ekaniga e’tibor qaratiladi.

Bu masala bo‘yicha insoniyat tarixida turli fikr va qarashlar mavjud bo‘lgani va bunday tortushuvlar hozirgacha davom etayotgani ham aytib o‘tiladi. Xullas, qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflari, o‘rta asrlardagi Sharq va G‘arb uyg‘onish davri namoyandalari, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarning ilmiy merosida moddiy va ma’naviy olam o‘rtasidagi munosabatlarga keng o‘rin berilganini muallif alohida qayd etiladi.

Ushbu tushuncha va tasavvurlar asosida materializm va idealizm kabi ta’limotlar yuzaga chiqqani hamda ular o‘z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qilgani asarda asoslanadi. Moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilgan holda tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish biryoqlama qarash ifodasi sifatida baholanadi. Bu

boradagi qarash va fikrlarni umumlashtirib, muallif “insonga xos orzu – intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga” qiyoslaydi.

Kitobda istiqlol yillarida jamiyatda ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi masalasiga alohida e’tibor berilgani ta’kidlanar ekan, ba’zi bir siyosatchi va nazariyotchilarning, oldin moddiy hayotni, keyin ma’naviy masalalarni o‘ylash kerak, degan mazmundagi fikrlarining xato ekanini yorqin misollar orqali isbotlanadi.

Ravshanki, moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi. Bu haqiqat mustaqil taraqqiyot yo‘limizda ma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot natijalari asosida o‘z tasdig‘ini topayotgani, taraqqiyotning mustahkam garovi bo‘lib xizmat qilayotgani kitobda o‘z ifodasini topgan.

Asarda milliy g‘oyaning namoyon bo‘lishi, u o‘zining ichki mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ma’naviy hodisa hisoblanishi alohida qayd etiladi. Darhaqiqat, milliy g‘oya, ma’naviyat va ma’naviy hayot o‘rtasida o‘zaro dialektik bog‘liqlik mavjud. Bu esa mazkur faslda atroflicha yoritib berilgan. Unda ta’kidlanganidek, har bir davlat yoki jamiyatning oliy maqsadi xalqni, insonlarni har tomonlama farovon hayot kechirishi, tinch-totuv yashashini ta’minlashdan iborat. Shu bois muallif milliy g‘oyaga aniq va mantiqiy asoslangan holda ta’rif beradi. Ya’ni, milliy g‘oya ajdodlardan avlodlarga o‘tib e’zozlanib kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqr ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va

hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning orzu-intilish va umid-maqsadlarini o'zida mujassam etgan botiniy kuch sifatida baholaydi.²⁸ Milliy g'oyaning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi asosiy tushunchalari bevosita insonning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq holda kechadi. Ma'naviyati yuksak insonni tarbiyalash, ma'naviyati yuksak jamiyatni barpo etish milliy g'oyaning asosiy vazifasi ekani kitobda har tomonlama yoritib beriladi.²⁹ Muallif mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar izchilligini ta'minlash, yangilanish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish borasidagi asosiy vazifalar, xususan, milliy g'oyaning asosiy tushunchalari bilan bir qatorda, uning uzviytarkibiy qismlari bo'lgan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ahamiyatini ham alohida e'tirof etadi.

I.Karimov asarda eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab qirralari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmaslik haqida ogohlantiradi. Bu boradagi ishlarning asosiy yo'naliishlarini ko'rsatib beradi. Birinchi navbatda, milliy madaniyati, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish; ikkinchidan, ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va uchinchidan, shu sohalarda ishlayotgan kadrlar masalasi hamda o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga yuksak mas'uliyat va javobgarlik hissi bilan yondashish zarurligini ta'kidlaydi.

Keyingi paytda san'at sahasida oshkorlikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida be'manilik va hayosizlikni, ba'zan hatto axloqiy buzuqlikni targ'ib qilish holatlari ham ko'payib borayotganiga e'tiborni qaratadi. Kitobda "qadriyat" tushunchasining ma'no va mohiyati tahlil etilib, tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot

²⁸ Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 75.

²⁹ Erkayev A. O'zlikni anglashga da'vat./Ma'naviy yuksalish yo'lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 86.

talablariga to‘liq javob beradigan, yillar o‘tgani sayin qadri ortib boradigan g‘oya va tushunchalargina chinakam qadriyat sifatida baholanadi.

Ma'lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Ona tili bu - millatning ruhi ekani kitobda alohida ta'kidlanadi. Mustaqil taraqqiyot yillarida, xususan, 1992 yil 7 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilab qo‘yilgani muhim ahamiyat kasb etgani ta'kidlanadi.

Asarda Vatanga muhabbat tuyg‘usi insonning eng aziz va yuksak tuyg‘ularidan biri ekani qayd etiladi. Hozirgi paytda yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarning ustuvor ahamiyat kasb etayotgani, tarixiy xotiraning tiklanayotgani, ijtimoiy voqeya va hodisalarga xolisona baho berilayotgani e'tirof etiladi. Mamlakatimizda 31 avgust sanasi “Qatag‘on qurbanlarini yod etish” kuni, 9 may esa “Xotira va qadrlash” kuni sifatida nishonlanayotgani, xotira maydonlari tashkil etilib, Motamsaro ona haykallari o‘rnatilgani ma'naviy hayotimizda o‘ziga xos voqeya bo‘lgani qayd qilinadi.

Umrini o‘tab bo‘lgan sho‘ro tuzumi qonun-qoidalaridan voz kechgan holda, erkin bozor munosabatlariga o‘tish va yurtimizda demokratik jamiyat qurish strategiyasini ishlab chiqish va bu yo‘ldagi ulkan amaliy ishlar sari dadil qadam qo‘yilgani o‘z-o‘zidan yuz bermagani aytib o‘tiladi. Muallif bayon qilganidek, buning uchun avvalo xalqimizning hayot tarzi, milliy an'ana va qadriyatlari, aholining kayfiyati har tomonlama hisobga olinadi. Chunki islohotlarning pirovard natijasi xalqning ularga ongli munosabati, ularni to‘liq qo‘llab-quvvatlashi va chuqur anglab yetishiga bog‘liq. Aynan ana shunday mezonlar asosida bugungi kunda butun dunyoda o‘zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modeli ishlab chiqildi. Bu modelning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: 1) iqtisodning siyosatdan xoli ekani; 2) davlatning bosh islohotchi bo‘lishi; 3) qonun ustuvorligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat; 5) islohotlarni tadrijiy ravishda amalga oshirish.

Asarda o‘zbek modeli tamoyillarini amalga oshirish natijasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, ularning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy ahamiyati ochib berilgan.

O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning murakkab davrida davlatning bosh islohotchilik roliga tayanib, aholining ko‘makka muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda keskin ijtimoiy larzalarga, eskilik tarafdori bo‘lgan kuchlarning norozilik chiqishlari, turli buzg‘unchilik harakatlariga yo‘l qo‘ymasdan, yurtimizda tenglik va barqarorlikni saqlab o‘zining ezgu maqsadlari sari bosqichma-bosqich, qat’iyat bilan ilgarilab bormoqda natijada xalqning ruhi, farovonlik darajasi ortib, uning bunyodkorlik salohiyati ro‘yobga chiqmoqda eng muhimi, odamlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda, yangi tuzumning afzalligini anglab, o‘zning kuch va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi, yon-atrofdagi o‘zgarishlarga daxldorlik hissi ortib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, kitobda bayon qilingan aslida har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqr his qilish bilan belgilanadi, degan fikrlar bugun hayotimizda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Asarda globallashuv jarayoni, uning mazmun-mohiyati, ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama tahlil etish, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashishning ahamiyati haqida so‘z yuritilib, dunyonи tez sur’atlar bilan o‘zgartirayotgan “globallashuv” hodisasining ko‘lami va ta’siri bugungi kunda kengayib, kuchayib borayotgani ta’kidlanadi. “Shu ma’noda, — deb ta’kidlaydi muallif, —globallashuv — bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”³⁰.

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Asarda globallashuv davrida

³⁰Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. - B.111.

davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulay imkoniyatlar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi kabi ijobjiy jihatlariga e’tibor qarataladi. Muallif globallashuv jarayonining ayni paytda mafkuraviy ta’sir o‘tkazish vositasi sifatida turli siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qilayotganini, ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlarimizga yot g‘oya va qarashlar yopirilib kirib kelayotganini, bularning barchasi qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini hayotiy misollar asosida yoritib beradi. Xususan, asarda bugungi kunda inson ma’naviyatiga yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplاب bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkinligi uqtiriladi. Darhaqiqat, harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiqni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab olish qiyin. Shu ma’noda, muallifning tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash, loqaydlik va beparvolikka barham berish haqidagi da’vatlari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobda haqli ravishda ta’kidlaganidek, bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzlucksiz tarzda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Asarda bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o‘zining g‘arazli manfaatlariga erishish uchun “Erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish” niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko‘zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o‘z vaqtida sezish, anglash g‘oyatda muhim ekani ta’kidlanadi. Shuni hisobga olgan holda, xalqimizning ma’naviy olamini bunday tahdidlardan asrash,

hozirgi o‘ta murakkab zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolisona va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi sifatida tilga olinadi.

Shuningdek, asarda kommunistik mafkura va uning axloqiy normalaridan voz kechilganidan keyin vujudga kelgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi necha ming yillik an’ana va qadriyatlarimiz, turmush tarzimizning ma’naviy negizlariga jiddiy tahdid qilishi, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solishi mumkinligi ta’kidlanib, bunday xurujlarga qarshi kurashish g‘oyat muhim ekani uqtiriladi.

Qisqacha aytganda, bugungi zamon voqyelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi, deyiladi asarda. Shunday ekan, yurtimizda yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz lozim. Toki, yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning axloqodob tushunchalarini rad etadigan, bizga mutlaqo begona g‘oyalari ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.³¹

Asarda muallif yosh avlodni turli ma’naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida to‘xtalib, nafaqat xalqni ulug‘laydigan buyuk fazilatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan noma’qul odatlar haqida ham fikr yuritadi.

³¹Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 108.

Birinchi navbatda, xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatni butkul xalos etish zarurati haqida kuyinib yozadi.

Muallif insonga xos bo‘lgan eng yomon illatlardan biri – sotqinlik illati haqida alohida to‘xtaladi. Zero, har qanday yovuzlik sotqinlikdan boshlanadi, ezgulik va haqiqatga sadoqati bo‘lmagan odam qo‘rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo‘lgan odam rahbarlik kursisiga o‘tirib qolsa, u yerda osoyishtalik yo‘qoladi. Odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi urushni ham sotqinlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo‘lishimiz, agar tevarak-atrofimizda birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan bo‘lsa, darhol tarbiyamizga olib, to‘g‘ri yo‘lga boshlashimiz kerak. Agar biz ahil bo‘lsak, el-yurt manfaati yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, O‘zbekiston xalqini hech kim, hech qachon yenga olmaydi.

Kitobda illat sifatida ochib berilgan, bartaraf etilishi lozimligi uqtirilgan hodisalardan yana biri — loqaydlikdir. Muallif fikricha, birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo‘layotgan voqyea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamdan qo‘rqish kerak. Ular hatto o‘z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisolli begona odamdek qaraydi.

Bunday holatlarga barham berish uchun har qaysi fuqaro, har qaysi inson, jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga intilib yashashi, ma’naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoyalash yo‘lida o‘z burchi va mas’uliyatini chuqur anglab olishi lozim.

Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroficha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlar mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarashni mustahkamlash, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashda muhim ahamiyat kasb etishi kitobda alohida ta’kidlanadi.

“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobida “Ma'naviyatni ... qudratli kuchga aylantirish uchun ... qanday masalalarga birinchi galda e'tibor berish, qanday ishlarni amalga oshirish zarur?” degan savol qo‘yilib, “bu boradagi faoliyatni har tomonlama puxta o‘ylangan tizimli ravishda tashkil etish”gina “inson qalbiga yo‘l topish”da hal qiluvchi rol o‘ynashi atroflicha tahlil etiladi.

Ma'naviyatni inson qalbiga singdirish mashaqqatli va shuningdek doimiy faoliyat ekani, uni tizimli ravishda tashkil etish esa, maqsadga erishishning birdan-bir ustuvor yo‘li ekani haqida so‘z yuritiladi. Shu sababli ham kitobda ta'lim-tarbiya sohasi, matbuot, televedenie, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, ya'ni inson qalbi va tafakkuriga ta'sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyoji, zamon talablariga mos ravishda kuchaytirish zarurligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Kitob muallifining qat'iy fikriga ko‘ra, “Inson qalbiga yo‘l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi”³². Shu bois “o‘qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnati hurmat bilan tilga olinadi.

Yangi insonni tarbiyalashda o‘zini o‘zi boshqarishning noyob instituti bo‘lgan mahalla va uning oqsoqollari, faollari, fuqarolar yig‘inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilarining ijobiylarini ta'siri ham kuchayib bormoqda. Ular odamlar ko‘ngliga yo‘l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo‘lib, o‘z vaqtida amaliy yordam, o‘rinli maslahatlar berayotgani joylarda mehr-oqibatning kuchayib, tinchlik-osoyishtalikning barqaror bo‘lishiga xizmat qilayotgani haqida kitobda ibratli fikrlar bayon qilinadi.

Haqiqatdan ham, bugun bizning befarq va beparvo bo‘lib yashashga haqqimiz yo‘q, chunki yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlar nafaqat bizning, balki farzandlarimizning taqdirlari va kelajagini hal qiladi.³³

³²Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 134.

³³Nazarov Q. Biz kutgan kitob./Ma'naviy yuksalish yo‘lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 80.

Yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil inson tarbiyasida beqiyos o'rinn tutadigan "erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi". Ayni paytda hozirgi dunyoda turli ma'naviy tahdidlar, jumladan "ommaviy madaniyat"ning ham zararli ta'siri kuchaymoqda. Bu ta'sirlardan "farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib bormoqda".

Insonning "ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita" bu — so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyot azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat vaadolat jarchisi bo'lib keladi. Mustaqillik yillarda adabiyotni rivojlantirish, tarixiy haqiqat bilan birga, bugungi kun haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar yaratish zamon talabi bo'lib qoldi. O'zbek adabiyoti namunalarini to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tilidan jahon tillariga tarjima qilish masalasi ham juda muhim. Shu sababli ham biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasiga boqiy saqlamoqchi bo'lsak, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.

"Xalqimiz hayotida musiqa azal-azaldan beqiyos o'rinn tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilgani ham shundan dalolat beradi". Istiqlol yillarda bu san'at turiga e'tibor kuchayib, keng miqyosli dastur va rejalar qabul qilindi. Shunga ko'ra mumtoz musiqiy merosni asrab-avaylash, bolalikdan boshlab musiqiy madaniyatni yuksaltirishga ahamiyat qaratish, yoshlarni ayniqsa o'ziga ko'p jalb etadigan estrada san'atining sifati va saviyasini ko'tarish, bunda avvalambor "milliy estrada" degan iboraning ma'no-mazmuniga alohida e'tibor berish, uni "ajnabiyl "ommaviy madaniyat" ko'rinishlariga taqlid qilishdan asrash masalalari yoritiladi.

Milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san'ati xususida ham kitobda atroflicha mushohada yuritilib, “hozirgi vaqtida respublikasiz teatrlarida turli mavzu va janrlarda ko‘plab spektakllar yaratilayotgani, ularda o‘ziga xos izlanishlar davom etayotgani” qayd etiladi. Shu bilan birga, “bugungi hayotimizni, zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan, tomoshabinni o‘ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtai nazaridan badiiy yuksak asarlar kam ekani aytib o‘tiladi.

Milliy tafakkur salohiyatiga ega bo‘lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar e'tirof qilinar ekan, bu borada tasviriy san'atdagi o‘zgarish va yutuqlar ham e'tirof etiladi. Istiqlol yillarida milliy ma'naviyatimiz rivojida o‘ziga xos o‘rin tutayotgan tasviriy san'at sohasiga ko‘plab yoshlar kirib keldi. Bu ayniqsa monumental san'at sohasida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mazkur bo‘limda muallif bu sohadagi sho‘ro davrida qurilgan mahobatli haykallar haqida to‘xtalib, sobiq tuzumda bu san'at turidan mafkuraviy ishda qanchalik ustalik bilan foydalanishga uringanlarini aytib o‘tadi.³⁴ Yurtimiz shahar-qishloqlarida odamlar tanimaydigan, hatto kimligi haqida umuman eshitmagan kishilarning haykallari o‘matilgani, xalqimiz o‘sha noma'lum zotlarga hurmat ko‘rsatib yashashga majbur qilingani yodga olinadi.

Istiqlolga erishganimizdan so‘ng tarixiyadolat qaror topib, xalqimizning toptalib kelgan milliy g‘ururini yuksaltirish maqsadida Sohibqiron Amir Temurning nafaqat muborak nomi, boy merosi va xotirasini, ayni paytda tarixiy siymosini ham tiklashga qaror qilindi. Asar muallifi Amir Temur portretining yaratilishi, xolis tarixiy manbalar asosida buyuk ajdodimizning tarixiy siymosini badiiy jihatdan qayta tiklash uchun bo‘lgan harakatlarni va shundan keyingina tasviriy san'at va haykaltaroshlikda Amir Temurning ulug‘vor qiyofasi aks ettirilganini ana shu jarayonning bevosita ishtirokchisi va unga bosh-qosh bo‘lgan inson sifatida yoritib beradi. Nainki Amir Temur siyoshi, “izlanish va tajribalar asosida keyinchalik

³⁴ Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 141 .

Farg‘ona shahrida – Ahmad Farg‘oniy, Urganchda – Muhammad Muso Xorazmiy va Jaloliddin Manguberdi, Navoiy shahrida – Alisher Navoiy, poytaxtimizda – G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya singari allomalarimiz, yozuvchi shoirlarimiz haykallarini, Termiziy shahrida Alpomish, Qarshi shahrida esa “El-yurt tayanchi” va boshqa o‘nlab monumental san'at asarlari barpo etilganini ta'kidlaydi. Ayni chog‘da bu sohada ham zamonaviy ijodiy maktab yaratish, yetuk haykaltarosh va me'morlarni tarbiyalash dolzARB masala bo‘lib qolayotganini uqtiradi. Bu san'at turi qatorida bolalarimizning ma'naviy olamini ezgu g‘oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirishga yo‘naltirilgan qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar ishlab chiqarish masalasi ham tilga olinadi. San'at va madaniyatga doir fikr–mulohazalarini umumlashtirilgan holda quyidagi xulosaga keladi. “San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo‘l topish haqida so‘z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o‘ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o‘rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan ilhomlantiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir”.

Asarda “yer yuzidagi barcha o‘lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug‘ kashfiyat va ixtiolar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari”ning “odamzotning aql-tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati” tufayli bunyod bo‘lishi haqida fikr yuritilib, ana shunday jasorat timsoli bo‘lgan insonlarning ibratlI hayoti va faoliyati xususida fikr yuritiladi.³⁵

Ma'naviy jasorat, tarixning qaysi bosqichida ro‘y berishidan qat'i nazar, butun insoniyatning ezgulik va taraqqiyot sari intilishining yorqin ifodasi bo‘lib qolaveradi. Muallif ulkan ma'naviy jasorat sohiblari bo‘lgan alloma zotlar

³⁵ Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 159.

dunyoning qaerida yashamasin, ezgulik va ma'rifat yo'lida hamisha odamlarga ibrat bo'lib kelganini alohida ta'kidlaydi.

Tabiat, jamiyat va inson mavjudligidagi uyg'unlikni, ko'zga ko'rinmas mislsiz qudrat-energiyani, o'zida ifoda etgan ma'naviy jasorat timsolida namoyon bo'ladigan ilohiy quvvatni muallif insonni tom ma'noda inson qiladigan omil deb biladi. Shu bois u o'z zamondoshlariga, vatandoshlariga murojaat qilib, qanday vaziyatda bo'lmasin, inson degan nomni sharafga burkab, doimo ma'naviy safarbarlik asosida yashagan, shu yo'lda hatto aziz jonidan kechishga ham tayyor bo'lgan buyuk zotlarning hayot yo'lini yoshlar uchun ibrat va namuna qilib ko'rsatadi, mustaqillikning ma'naviy asosini aynan ana shunday intilish, hayotga e'tiqod bilan mustahkamlash zarurligiga e'tiborni qaratadi.

I.Karimovning xulosasiga ko'ra, uzoq va yaqin tariximiz shuni ko'rsatadiki, xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissa bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

Asarning xotima qismida muallif ma'naviyatning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalariga yakun yasab, ma'naviy yuksalishga erishish – bu bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas, balki xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib borishiga e'tibor qaratadi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan yangi-yangi talablar ham muttasil paydo bo'laveradi.

“Zamon sur'atlari shiddat bilan tezlashib, muammolar ortib, ko'payib borar ekan, “tabiiyki, ma'naviy hayotimizda ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz, millatimizning yorug' va sog'lom kelajagini har qanday o'zgarishlardan bezavol saqlash va asrab qolishga qaratilgan harakatlar

bo‘laveradi. Muallif ana shu mulohazalardan kelib chiqib, “biz kimmiz?” degan savolga javob bermasdan turib, eng muhimi, ma’naviy boylikni, ma’naviyatni yuksaltirishga doimiy intilmasdan turib, oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga erishish mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Xotimada xalq hayoti “bamisoli ulug‘ va sharafli yo‘ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon”ga qiyoslanadi. “Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch, ma’naviyat bor”.³⁶

Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch asari yuksak ma’naviyatli jamiyatning eng faol a’zosining shonli tarixga xolisona baho berib, bugunini qadrlab, o‘z kelajagiga katta umid bilan yashayotgan xalqimizning donishmandligi va matonatiga, uning mustahkam iymon-e’tiqodi, irodasi va doimo uyg‘oq yuksak ma’naviy ruhiga ishonchi haqidagi mulohazalari bilan milliy o‘zlikni angash va ma’naviyatimizni yanada rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan u o‘zbek xalqi madaniyati va tafakkurining durdonasi bo‘lib qoladi.

II BOB O‘zbekiston taraqqiyotining asosi - ma'rifiy hamkorlik ekanligi

2.1. Mustaqillik va ma'rifat masalasining I.A. Karimov asarlaridagi mohiyati va mazmuni

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik xalqga tom ma’noda olloxning inoyati edi. Chunki, yetmish yillik istibdoddan so‘ng xalq o‘z milliy an’ana va qadriyatlarini

³⁶ Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. - B. 172.

o‘z vijdon amri bilan ado etadigan, milliy ma'naviyatini turmush tarzida emin erkin ifoda etadigan bo‘ldi. Bu jarayonda xalqni mustaqillikka erishishida yuksak jasorat egasi I.Karimovning o‘rnini alohida e'tirof etish lozim. I.Karimov mustabid davrdagi tahlikali yillar haqida so‘z yuritar ekan, unda o‘zbek xalqi faqatgina ozodligi, erkinligini yo‘qotgan emas, o‘z ma'naviyatida ayro tutilganini o‘z asarlarida ta'kidlab o‘tadi. Jumladan, -"Biz mustaqilliknigina emas, tilimizni, dinimizni, butun ma'naviyatimizni yo‘qotish darajasiga yetgan edik. Na Chor hukumati, na qizil imperiya sultanati Turkiston xalqlarining taraqqiy topishini hyech qachon istagan emas. yer osti va yer usti boyliklari adadsiz, tuproqlari hosildor, tabiatи jannatmisol bu o‘lka halol, ochiqko‘ngil, mehmondo‘st va ayni paytda mehnatkash xalqi bilan birgalikda 130 yil davomida mustamlakachilik azobini tortib keldi...³⁷

Islohotlar jabhasi keng. U nafaqat iqtisodiyotni, balki siyosiy va ma'naviy sohalarni ham qamrab oladi. Hech bir soha e'tibordan chetda bo‘lmasligi kerak. Ayniqsa, ma'naviyat bilan jiddiy shug‘ullanish vaqtি keldi. Mustamlaka mafkurasi sarqitlaridan tezroq voz kechish lozim. Ilgari o‘zbekni faqat paxtakor, chorvador, cho‘pon, suvchi deb haqoratomuz gapirish urf bo‘lgan edi. Bu hol hozir ham uchraydi. Bunday yo‘l tutishdan maqsad o‘beklardan faqat ishchi kuchi sifatida foydalanish edi. Vaholanki, o‘zbeklar orasidan dunyoga mashhur olimlar, adiblar, san'atkorlar yetishib chiqqanini hamma biladi. Lekin ularni hech kim eslamasdi. Milliy istiqlol mafkurasi deganda bundan buyon millatimizni kamsitadigan bирyoqlamalikdan qutulib, yoshlarimizni millatimiz ravnaqi uchun zarur bo‘lgan barcha kasblarga yo‘naltirish tushuniladi. Mamlakatimiz Prezidenti Xorazm viloyati yoshlari bilan yo‘l-yo‘lakay uchrashib, oralaringizda askar bo‘lishni istovchilar ham bormi, deb so‘raganida xuddi shularni nazarda tutgan edi. Bugun mustaqilimiz qo‘lga kiritishimiz bizga har daqqa uning qadriga yetish, uni mustahkamlashga safarbar etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

³⁷ Karimov I.A., O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.1-tom. -T.: O‘zbekiston, 1994. -B. 74.

I.Karimov ta'kidlaganlaridek, -“Bizga bugun faqat dehqon yoki ishchilargina emas, mustaqillik himoyachilari - malakali zabitlar ham, xalqimizning ma'naviyati kamol topishiga xizmat qiladigan yetuk asarlar yaratuvchi adiblar ham, milliy g'ururni tarbiyalovchi mukammal she'rlar ham, san'at asarlari ham kerak. Endi nuqul paxta haqida bahslashmasdan, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga e'tiborni kuchaytiraylik. Komil insonlar bilangina yurtimiz barkamol bo'lishi, azaliy kuch-qudrat va shuhratimizni tiklashimiz mumkinligini unutmaylik. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'taraylik! Umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish negizida milliy ong va demokratik tafakkur tarbiyasini kuchaytiraylik!”³⁸

Mustaqillik xalqni mustabid va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan ozod qildi, o'zbek xalqiga o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurish, o'z madaniyati va an'analarini, qadr-qimmati, dini va e'tiqodini, ona tili va ma'naviyatini qayta tiklash imkonini berdi. Milliy ma'naviyat va axloqning tiklanishi uchun barcha sharoit yaratildi. Jamiyatimizni isloh qilish va yangilash boshlangani tufayli inson ma'naviyati, yuksak axloq va madaniyatining qudratli qatlamlari ochildi, go'zal milliy an'analar tiklandi, jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosiga murojaat etish boshlandi. Xalqning tarixiy ruhi uyg'onmoqda, ma'naviyatning ko'zi ochilmoqda, shu tufayli odamlar qalbida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topmoqda. Dunyoda katta yoki kichik millat yo'q, balki har bir millatning o'z g'ururi bor. Uni kamsitishga esa hech kimning haqi yo'q³⁹, deya ta'kidladi I. Karimov. Shu ma'noda, o'z kuchiga, salohiyatiga ishongan xalqning bag'ri keng bo'ladi. Bunday millat kuchli, ayni damda vazmin, bosiq bo'lmog'i kerak. U o'zining iqtisodiy yutuqlari, ma'naviy yuksakligi bilan boshqalarda

³⁸Karimov I.A.,Islohotlar muvaffaqiyati - istiqlol kafolati / O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.1-tom. -T.: O'zbekiston, 1994. -B. 126.

³⁹Karimov I.A.,Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q./Yangicha fikrash va ishlash – davr talabi. 5-tom. -T.: O'zbekiston, 1997. -B. 225.

havas uyg‘otsin. Yurtdoshlarimizni ana shu ruhda tarbiyalash, avvalo, ma'rifat va ma'naviyat namoyandalarining eng asosiy, muqaddas burchidir. Dunyo o'tkinchi. Do'ppini bir bor aylantirguncha oradan shitob bilan necha yillar o'tib ketadi. O'zligini anglab yetgan, qalbiga qulqoq solgan har bir inson o'ziga, men bu foniy dunyoda nima ish qildim, yana qanday ishlar qilishga vaqtim va qurbim yetadi, degan savolni berishi kerak. Ana shu savol inson qalbini tozartiradi, uni bosavob, ezgu ishlarga chorlaydi. Xullas, ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, axloqi, hayotning ma'nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir. Ma'naviy barkamol inson - o'zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi. Afsuski, joylarda madaniyat va ma'naviyat masalalariga yengil-yelpi qarash hollari mavjud. Bu boradagi ishlarni oxiriga yetkazish mas'uliyatini kimdir zimmasiga olishi kerak. Shu ma'noda, madaniyat va ma'rifat namoyandalari bilsinlarki, ma'naviyatning eng asosiy himoyachisi respublika Prezidenti bo'ladi, dedi Islom Karimov. Ma'naviyat masalasidagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida maxsus farmonlar chiqarildi. Chunki, ma'naviyat ishlarini yo'lga qo'ymasdan turib iqtisodiy yuksalishlarga erishish qiyin. Zero, yuksak ma'naviyati bo'limgan xalqning kelajagi ham yo'qdir.

Ma'lumki, mafkura sohasida bo'shliq, vakuum bo'lmaydi. O'zbekiston xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviy va siyosiy madaniyatining eng ilg'or an'analari asosida ishlab chiqilayotgan milliy mustaqillik mafkurasi individualizmning vayron qiluvchi ta'siriga qarshilik ko'rsatishga qodir. Mafkuraviy ish, mustaqillik, yuksak ma'naviyat, axloqiylik, madaniyat g'oyalarini targ'ib qilish o'tkinchi holga aylanib ketmasligi kerak. Axloq va ma'naviyat mavhum kategoriyalarga aylanmasligi, faqat tashviqotchi va tarbiyachilarining ishi bo'lib qolmasligi lozim. Yuksak darajada axloqli fuqaroni voyaga yetkazish - har bir insonning burchidir. Juhon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz; ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aql-zakovat imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak

ma'naviyati va axloqiy qadriyatlar; zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, saxovatliligi, bag'ri kengligi va jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir.⁴⁰

Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat- ehtirom - O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida islom dinini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashish istagida ham shu omil namoyon bo'lmoqda.

Bir holni chuqur anglashimiz kerak: chetga bu qadar ko'p paxta sotish respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoat rivoji ko'zlangan darajaga yetguncha davom etishi mumkin. Biz barcha taraqqiy topgan va ma'rifatli mamlakatlar kabi paxta bilan emas, avvalo, tayyor mahsulot bilan savdo qilishimiz zarur. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurmoqchi ekanmiz, bozor xizmat tarmoqlarini shakllantirish va izchil rivojlantirish strategik jihatdan ustun yo'nalishdir. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xizmat qiladigan tarmoqlar - tijorat banklari tarmog'ini, zamonaviy moliya va soliq tizimi, audit, sug'urta vositasi va birja faoliyatini rivojlantirmay turib ma'rifatli bozor sari aniq qadam tashlash to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Davlat siyosiy partiyalarning, jamoat birlashmalarining huquqiy manfaatlarini muhofaza etadi, ularga ijtimoiy turmushda ishtirok etish uchun teng huquqiy erkinlik yaratib beradi. Ayni vaqtida yakkahokimlikka intilishlarga va bir mafkura imtiyozli bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Zero, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga, hududiy

⁴⁰Karimov I.A., Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish/ Havfsilik va barqaror taraqqiyot yo'lida.6-tom. -T.: O'zbekiston, 1998.-B. 256.

yaxlitligiga va xavfsizligiga raxna soladigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, urush va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi, Konstitutsiyaviy tuzumga, xalqning demokratik erkinliklariga va ma'naviyatiga tajovuz qiladigan partiyalar va jamoat harakatlari qonundan tashqari bo‘lishi lozim. Konstitutsiya loyihasida hurfikrlilik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilgan. Dinning xalqimiz ma'naviyatiga, ruhiyatiga o‘tkazayotgan hayotbaxsh ta'sirini ko‘rib turibmiz. Dinning tarbiyaviy ahamiyati yanada ko‘proq bo‘lishi lozim. Har bir inson o‘z e'tiqodiga va dinga amal qilish yoki hyech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega.

Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, xullas, inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti. Odamlarda o‘zligini anglash, milliy g‘urur, oriyat, o‘tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni barpo etishni o‘z qo‘limizga olganimizdan g‘ururlanish kabi tuyg‘ular kamol topayapti, ularning bugungi va ertangi kunga ishonchi ortib borayapti. Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko‘plab chop etish, ayniqsa madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o‘rganish muhimdir. Agar iqtisodiy o‘sish, taraqqiyot - jamiyatimizning tanasi bo‘lsa, ma'naviyat- ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonni tarbiyalash esa ijtimoiy fanimizning muqaddas burchidir.⁴¹

Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston dunyoga yuz ochdi. Bugun dunyodagi demokratik, mutaraqqiy davlatlar tajribasini o‘rganish imkoniyatlari g‘oyat

⁴¹Karimov I.A., Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin -T.: O‘zbekiston, 2009.-B. 65.

keng. Bu borada hyech qanday to'siq yo'q. Ular to'plagan tajribaning biz uchun maqbul jihatlaridan foydalanish ham milliy dasturimizda ko'zda tutilmog'i darkor. Eng muhimi, shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'y-harakatlarimiz kutilgan natijalarini berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor. Chunki bizning xalqimiz talant va iqtidor jihatidan hyech kimdan kam emas. Unga ma'rifatning ravon yo'llari ochib berilsa, jahonda o'ziga yarasha obro'li o'rinni egallay oladi, dedi Islom Karimov.

Buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilmu ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo'lidan darak beradi. 1417 yili Buxoroda Mirzo Ulug'bek qurdirgan madrasa darvozasiga "Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir" degan so'zlar o'yib yozilganida juda katta ma'no mujassam. Xuddi shuningdek, 1433 yili Ulug'bek tomonidan G'ijduvonda barpo etilgan madrasa ne-ne avlodlarga ilmu ma'rifat ziyyosini tarqatgan. Buxoro nafaqat yurtimiz, balki butun Sharqning ilm markazi bo'lib kelgan. Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mir Kulol, Boboi Samosiy, Fag'naviy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev va boshqa shu kabi buyuk zotlar yetishib chiqqan, tahsil olgan bu makon bundan buyon ham ilmu fan, ma'rifat va ijod beshigi bo'lib qolaveradi. Xalqimiz buyuk ajdodlarimiz mo'tabar nomlarini, umuminsoniy ma'naviyatga va umuman bashariyat rivojiga katta hissa qo'shgan, go'zal Buxoroni bezab, unga betakror nafosat, shakl va salobat baxsh etib turgan imoratu inshootlarni, masjidu maqbaralarni, madrasalarni, islam dinining,

Sharq falsafasining o‘chmas qadriyatlarini bugungi avlodlarga meros qilib qoldirgan buyuk ajdodlar nomini abadul-abad saqlaydi.⁴²

O‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi, o‘zligi, ma’naviyati haqida gapi rayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil, muayyan masalalarda aniq yondashuv yetishmayapti. Ilmiy tilda aytganda, yaxlit konsepsiya yo‘q. O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur.⁴³ Erkin, demokratik jamiyat quryapmiz. Biz uchun yopiq mavzuning o‘zi yo‘q. Umumxalq minbari - televidiniyamiz, radiomiz, matbuotimiz bor. Yaxshi niyatli kishilarga chegaralarimiz hamisha ochiq. Xorijdan mehmonlar kelishyapti, biz chet davlatlarga chiqyapmiz. Kunda bo‘lmasa, kun ora xalqaro anjumanlar o‘tib turibdi. Bizga mana shu anjumanlarda manman degan olimlar bilan xohlang iqtisod, xohlang siyosat, xohlang tarix, ma’naviyat sohalari bo‘lsin, bemalol bahslasha oladigan bilimdon, zukko, ma’rifatli odamlar kerak. Nega men ma’rifat so‘zini ko‘p takrorlab, unga alohida urg‘u beryapman? Chunki, jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma’rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqyealarni bir eslang. Nega bu o‘lkada o‘sha yillari ma’rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani uyg‘otishga, xalqning ko‘zini ochishga faqat ma’rifat orqaligina erishish mumkin edi. Ma’rifatparvarlik biz uchun bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, yo‘qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecholmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo‘lmaydi! Aynan shuning uchun ham o‘z paytida Respublika

⁴²Karimov I.A., Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i tabrik so‘zi. -T.: O‘zbekiston, 2009.-B. 78.

⁴³ Karimov I.A., Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.: O‘zbekiston, 1998.-B. 12.

Ma'rifat va ma'naviyat markazini tashkil etdik. Markazning viloyat, tuman bo'limlari ochildi. Gap hozir respublika byudjetidan ajratilgan katta mablag' haqida emas. Kerak bo'lsa, yana yordam beramiz. Mazkur sohadagi ishlarning talab darajasida emasligini, tashkilotning rasmiyatchilikka berilib ketayotganini qanday tushunish mumkin? Bu holni ko'rganda beixtiyor, baraka topkur, sen sho'rolar zamonidagi dompolitprosveshenie, ya'ni siyosiy maorif uyi xodimi emassan, mutlaqo boshqa odamsan, biz bu markazni faqat maosh olish uchungina tashkil etmadik, degingiz keladi. Qolaversa, ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma'rifatchi fidoyi bo'lmos'i kerak. Tushunamiz, ularning ham tirikchiligi, bola-chaqasi bor. Shuning uchun ham maosh tayinlab qo'yibmiz. Lekin yana takror aytaman: ma'rifatchi, eng avvalo, fidoyi bo'lmos'i, o'zidan kechmog'i kerak. Endi asosiy masalaga o'tsak. Xo'sh, tarixning ma'naviyatimizda tutgan o'rni qanday? Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas! Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak.

Hozirgi vaqtida ma'rifat masalasi naqadar o'tkir va hal qiluvchi masalaga aylanib borayotganini aksariyat ko'pchiligidan hali ham chuqur tupgunib yetganimiz yo'q, desak, o'ylaymanki, xato bo'lmaydi. Yana takror aytishga to'g'ri keladi: ma'naviyatni yo'qotsak, o'zimizni va o'zligimizni yo'qotamiz. Ma'rifatni yuksaltirsak, o'z murod-maqsadimizga yetishda kuchli madad topamiz. Hozirgi kunda g'oyaviy muxoliflarimiz, ma'naviyatimizga qarshi kuchlar aholimizga, ayniqsa yoshlarimizga nisbatan axborot xurujlari uyuştirishga, «ommaviy madaniyat» shaklidagi puxta niqoblangan tahdid va ta'sirlar o'tkazishga urinmoqda. Bugungi kunda siyosat haqida gapirganda — siyosatchi, iqtisodiyot haqida iqtisodchi bo'lib fikr yuritishni, ma'naviyat va ma'rifat haqida ma'rifatchi, hayotiy-falsafiy muammolar xususida faylasuf bo'lib bahsga kirishishni — mana shunday yuksak qobiliyat va mahoratga ega bo'lishni

hayotning o‘zi jurnalistlarimiz oldiga eng muhim vazifa qilib qo‘ymoqda.⁴⁴ Shu munosabat bilan ilgari bildirgan bir fikrni yana takrorlash o‘rinli bo‘ladi, deb o‘yayman: Vatan va xalq manfaatlarini himoya qilish, yosh avlodimizni turli tajovuzlardan asrashda fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish bugungi kunda har qachongidan ham chuqr mazmun va ahamiyat kasb etmoqda.

Faqat sog‘lom onadan sog‘lom farzand tug‘iladi. Bu Prezident I.Karimovning sharq ayolining bunyodkor salohiyati haqidagi qarashlarini tashkil etadi. Faqat aql-zakovatli, ma'rifatli onalargina komil insonlarni tarbiyalashga qodir bo‘ladi. Ana shu haqiqatni chuqr anglagan holda, mamlakatimizda ayollarning salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan, uzoqni o‘ylab, puxta ishlab chiqilgan va hayotga izchil joriy etilayotgan dastur va tadbirlarimiz bugungi kunda o‘zining dastlabki samarasini berayotgani barchamizni quvontiradi.

2.2. I.A. Karimov O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining rahnomosi

Jahon tarixiy tajribasining guvohlik berishicha birorta ham xalq va millat ta’lim tarbiyaga e’tiborsiz taraqqiyotga erisha olmagan. Bugungi kunda ma'naviyatga, ta’lim – tarbiyaga, milliy kadrlar tayyorlashga birinchi darajali ahamiyat bermaydigan jamiyat, davlat, xalq va millat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etolmaydi. Xalqi ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk bo‘lmasan mamlakat tabiiy - iqtisodiy boyliklariga behisob, harbiy jihatdan qudratli bo‘lgan taqdirda ham buyuk davlat bo‘la olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li" kitobida shunday deyilgan: - "Mustaqil davlatda,

⁴⁴Karimov I.A., Eng asosiy mezon -hayot haqiqatini aks ettirish -T.: O‘zbekiston. 2009.-B. 26.

tinchlik va osoyishtalikda, g‘oyaviy chalkashliklar va temir parda"dan xalos bo‘lib, biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo‘lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadam-baqadam bahramand bo‘lmoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo‘lidan dadil borishimiz va butun insoniyat bilan birligimizning eng mustahkam kafolatidir.⁴⁵

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'kidlangan umumbashariy qadriyatlarning zaminida albatta, birinchi o‘rinda ta'lif-tarbiya yotadi. Insonda qachonki insonparvarlik g‘oyalari ustun bo‘lsa, siyosiy ongi yetuk bo‘lsa, atrof-muhitga munosabati sog‘lom bo‘lsa, bir so‘z bilan aytganda umumbashariy qadriyatlar ustun bo‘lsagina bunday insonlar mavjud bo‘lgan jamiyatni biz fuqarolik jamiyati deb atay olamiz. Shunday ekan, istiqbolimizni belgilaydigan ta'lif sohasini isloh qilish mamlakatimizdagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida XX asr oxirlarida maydonga chiqdi. Aynan ana shu ta'lif sohasi kelajagimizni yaratadi.

O‘zining mustaqil rivojlanish yo‘liga qadam qo‘ygan respublikamizning ta'lif sohasining isloh qilinishida Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning serqirra faoliyati bilan birga, uning nutqlari nashriy asarlarining ham ahamiyati beqiyosdir.

Barchamizga ma'lumki, respublikamiz milliy mustaqilligini qaror topshirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy siyosiy sharoitga to‘g‘ri keldi. Bu jarayonda esa mulkchilikning yagona davlat monopoliyasiga asoslangan shaklidan ko‘p ukladli shakliga o‘tish, shuningdek, huquqiy demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishni, o‘z fikr va dunyoqarashiga ega bo‘lgan kadrlarni tarbiyalash zamon talabi edi. Shunday ekan, ushbu jarayonda ta'lif tizimini tubdan isloh qilish, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib turardi. Shuning uchun ham ta'lif sohasiga davlatimiz alohida g‘amxo‘rlik qildi va qilmoqda.

⁴⁵ Karimov I.A., O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li -T.:O‘zbekiston, 1992. -B.62.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov ta’kidlaganlaridek, - "yosh respublikamiz mustaqilligiga rahna solishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi salbiy omillar fuqarolarning hushyor bo‘lishlari, vatanparvarlik ruhi bilan nafas olishlari, harakat, faoliyat yo‘nalish belgilari hayot – mamot masalni bo‘lib turibdi. Bularning barchasi nafaqat iqtisodiy, siyosiy sohada, balki ma’naviy-ma'rifiy jabhalarda, jumladan uning tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim – tarbiya tizimida jiddiy islohatlar o‘tkazishni va bunda inson shaxsi, o‘z ichki salohiyotini eng ko‘p darajada namoyon eta oladigan muhitni yaratishni talab etmoqda" ⁴⁶ - deydi.

Darhaqiqat, eng oliv qadriyat sifatida tan olingan inson, uning hayoti, havfsizligining ta'minlanishini masalalarining barcha – barchasi ma'rifikatga borib taqaladi. Hayotda esa ma'rifikatga hamisha jaholat to‘siq bo‘ladi. "Jaholat" so‘zining o‘zi ilm ma'rifikatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat deya talqin etiladi. Dunyoni jaholat egallasa nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifikat, ma'naviyat, hurfikrlilik, inson ozodligi barcha- barchasi barham topadi.

Ma'rifikat esa insonlarning ong – bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim tarbiyadir. Demak, jaholat bilan ma'rifikat bir – biriga tamoman qarama - qarshi tushunchalardir. Hayotda ma'rifikat jaholatning illatidan o‘z maqsadi yo‘lida foyladanmaydi. Biroq jaholat o‘zining manfur niyatini amalga oshirishda ma'rifikatning hislatlarini ishga soladi, o‘zining g‘arazli maqsadiga erishish uchun ma'rifikat niqobiga kirib ish yuritadi.

XXI asr vabosi deya atalishi terrorizmning tub – tubi ham jaholatga borib taqaladi ya’ni, qanchadan - qancha yoshlarning din niqobiga o‘ralgan soxta aqidalarga uchishi" barchasi ma'naviyat, ma'rifikatning sayozligidan kelib chiqqan, buning oqibati esa qanchadan - qancha insonlarning hayotiga zomin bo‘lishi muqarrardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqori fikrlarida esa, bir so‘z bilan aytganda tinchlik, xavfsizlik kabi g‘oyalar ilgari surilgan.

⁴⁶ Karimov I.A., Barkomol avlod orzusi. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000. –B. 10.

Jamiyatimizni tubdan yangilash maqsadini ko‘zlab ishlab chiqilgan bashta tamoyil hayotga tadbiq etilayotgan hozirgi paytda ma’naviy – ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, jamiyatda milliy g‘oyani shakllantirish, buning natijasida esa, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga javoblari va bir guruh tarixchi olimlar bilan bo‘lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi" qarorida, shuningdek, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvida so‘zlagan nutqida yoshlar ongida milliy g‘oyani shakllantirish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, xalqimizning haqiqiy tarixini tiklash kabi masalalar ilgari surilgan.

Zero, ta'lif – tarbiya tizimini sog‘lom insonparvarlik yo‘nalishida qayta tashkil etish, uni zamon talabalari darajasiga ko‘tarish, barkamol, ma'naviy dunyosi boy, ahloqiy pok insonlarni tarbiyalash kechiktirib bo‘lmaydigan davlat ahamiyatidagi vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Fikrimizning yorqin dalili sifatida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishning davlatimiz, jamiyatimiz uchun zarur ekanligini isbotlab bergen Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqini keltirish mumkin.

Unda farzand tarbiyasida oilaning, oilaga xos an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarning bola tarbiyasidagi roli aniq ko‘rsatib berilgan: -- "eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot muktabi orqali jamiyat talabalarini anglaydi, his etadi"— deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqida. Bunda farzand tarbiyasida oilaning, ota – onaning, atrof-muhitning roli katta ekanligi tasdiqlangan.

Darhaqiqat, oila insonga insoniyagini anglatadigan, uning kelajagiga mustaqil zamin yaratadigan muqaddas maskan, ta'lif tarbiya o‘chog‘idir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" asarida esa bu haqda shunday deyilgan:

"Yurtimizdagi har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Shu bois oila mafkura tushunchalari chambarchas bog‘liqdir. Oilaning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy – ahloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetishdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz."

Inson taqdiri oilaga, oila ta'lim-tarbiyasiga bevosita bog‘liq bo‘lsa, o‘z navbatida oiladagi o‘zaro munosabatlarga atrof-muhitning ta'siri o‘ta muhim. Zero, maqsadimiz "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" ekan bola tarbiyasiga jamiyatning ta'sirini oshirish lozim.

Jamiyatning birinchi bo‘g‘ining tashkil etgan oilalarning sharoitlariga keladigan bo‘lak, ular bir – birisidan tubdan farq qiladi. Shuningdek, ulardagi bolalarning hulqu atvoriga ta'sir qilish darajasi ham har xildir. Ya'ni bu ta'sir qilish ijobiy yoki salbiy ma'noda bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi esa jamiyatda xushyorlikni talab qiladi. "Xushyorlik" deganda birinchidan atrofdagilar bilan muloqatda; ikkinchidan, ularning nimalar bilan bandligi; uchinchidan, ularning hatti-harakatlari kelajak uchun ijobiyligi yoki salbiy oqibat olib keladimi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ota-onaning farzand oldidagi burchlaridan biri farzandini savodli, kasb -hunar egasi qilishdan iborat ekanligini quyidagicha ta'kidlaydigan: -- "Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o‘zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonodon oqsoqollaridan so‘rasangiz, ularni lo‘nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirish, savodini chiqarish, ilmli, kasb - hunarli qilish, boshini ikki, uyli joyli qilish"⁴⁷ deydi.

Albatta yuqoridagilarning barchasi ularning o‘z o‘rnida bo‘lishi insonni barkamollik sari yetaklaydi.

«Turonzaminu Sharq olamining, butun insoniyatning ilm-fani, madaniyati va ma'rifati taraqqiyotiga beباho hissa qo‘sghan buyuk mutafakkir, ilk uyg‘onish

¹ Karimov I.A., Barkomol avlod orzusi. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000. –B. 10.

davrining qomusiy allomasi bo‘lib hisoblangan Abu Nasr Farobiyning uqtirishga, iloji bo‘lsa oldin tarbiya, so‘ngra ta’lim berilishi lozim. Uyda, oilasida yaxshi tarbiya ko‘rgan bola ixlos va ishonch bilan ta’lim olishga, ilm-fanni o‘rganishga intiladi.

Agar yoshlarda ma’naviy kamolot zarur bo‘lsa, ularda ta’lim olishga, hayotda o‘ziga munosib o‘rin egallahsga ishtiyoyq sust bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib, Farobiy avval yoshlarni tarbiyalab, mehnat qilishga o‘rgatib, kasb - hunarni bildirib, keyin ta’lim berish lozim»⁴⁸, deb ta’kidlaydi.

U bu haqda yana shunday degan: -- "Har kim ilm hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon shilardan saqlasin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo‘lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va aqli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimni egallasin"

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo‘ladiki, inson hamisha ilm sari intilib yashashi kerak, shuningdek olgan ilmlarini hayotda kasbiy faoliyatda, yaratuvchilikda foydalanishi lozimdir. Zero, hayot harakatdan iboratdir. Inson hayotini falokatga olib keluvchi narsa bu ham bo‘lsa hayotda birdan-bir inson uchun foydali faoliyat, kasbu kor bilan mashg‘ul bo‘lmaslikdir. Ota-onaning farzand oldidagi burchlarini mas’uliyat bilan ado etishi nafaqat farzandining kelajagi uchun, balki o‘zining va jamiyatning kelajagi uchun ham ijobiy rol o‘ynaydi.

Amaldagi milliy qonunchiligimiz qoidalariga asosan, ya’ni konstitutsiyamizda va oila kodeksida ota-onaning farzand oldidagi burchlari va shu bilan birga farzandning ota-onsa oldidagi burchlari, ularning huquqiy tomonlari batafsil belgilab qo‘yilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

⁴⁸ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1998. – B. 130-134.

Mamlakatimiz o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan barcha javhalarda bo‘lgani singari ta’lim sohasida ham rivojlanish uchun qulay shart-sharoit va muhit yaratildi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatimiz buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas’uliyat yukladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bu haqda shunday deydi: - "mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e’tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihamiz jamoatchiligidan diqqat e’tibori markaziga o‘tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammolarga aylanmoqda."⁴⁹

Shuningdek, "jamiyat, xalq va davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti moddiy-ma’naviy kamolot, o‘sish-o‘zgarish va rivojlanishi bilan chambarchas bog‘langan taqdirdagina behat tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Yuksak ma’naviyat jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa muammolarini hal etishning muhim omilidir."

Darhaqiqat, ta’lim tarbiya ertangi taqdirimizni hal qiladi, ya’ni fikrlarimizni quyidagi jumalarda ifodalanishiga harakat qilamiz: dehqon bu yil ekin eksa, bu yil hosilini oladi, tarbiyachining esa, bugun bergen tarbiyasi ertaga millionlab insonlarga foyda keltirishi mumkin, yoki aksincha insoniyatning boshiga falokat keltirishi ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hali davlat mustaqilligini qo‘lga kiritmasdanoq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratgan edi: -"aytish kerakki kadrlarni puxtar qilib tarbiyalamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qullab quvvatlamasdan, o‘ylanmanki, birorbir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o‘zgartirib bo‘lmaydi" degan edi.

Yuqoridagi fikrlar bayon qilingan davrlar sobiq sho‘ro zamoni bo‘lib, bu tizimda esa millatni yorug‘likka olib chiqaruvchi barcha harakat, g‘oya va gap gapligicha yanayam aniqrog‘i, barkamol avlod hiqidagi orzular orzuligicha qolib ketar edi. Bu

⁴⁹ Karimov. I.A., Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:Sharq,1999. –B. 9.

g‘oyani amalga oshirish imkoniyatining yo‘qligi sababli O‘zbekiston ham mafkuraviy, ham iqtisodiy jihatdan tobe edi.

Ta‘lim sohasining isloh qilinishi arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘tgan davr mobaynida amalga oshilgan tadbirlarni zamon talab qilayotgan darajada emasligiga alohida to‘xtalib o‘tgan edi.

Bu birinchidan, eski sho‘rolar davridan qolgan ta‘lim tarbiya tazimida mafkuraviy qarashlarning va sarqitlarning hali ham mavjudligida;

Ikkinchidan, ta‘lim tarbiya va o‘quv jarayonini bir biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta‘lim tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarining o‘z yechimi topolmay qolganligida;

Uchinchidan, Respublikamizdagi amaldagi ta‘lim tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko‘p joylarda yaqqol ko‘rinyotganligida, shuningdek, mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta‘lim va bilim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo‘layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqinroq bog‘lanmaganligida ham ko‘zga tashlanib turganilagini ilmiy jihatdan asoslab bergen.

Shuningdek, ta‘lim sohasining ta‘lim tarbiya jarayonining kutilgandek natija berishi asosan o‘qituvchiga borib taqalishini, ya’ni tarbiyachining saviyasiga, u qanchalik darajada zamonaviy bilim, tajriba va ushbu bilim ko‘nikmalarini o‘quvchi onggiga qay darajada va qanday metodlarni qo‘llash orqali yetkazib bera olishi mumkinligini jiddiy muammo ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

Darhaqiqat, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi yetakchilik rolini o‘ynaydi.

O‘qituvchi- bu ta‘lim turlari uchun davlat tomonidan belgilangan O‘zbekiston uzluksiz ta‘limining davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim tarbiya beruvchidir.

O‘qituvchi- agar ta‘lim tarbiyaning san‘at deb qaraydigan bo‘lsak "derejyor". Tarbiyalanuvchilar esa bu jarayonda "ijrochilardir."

Shunday ekan, ta‘lim tarbiya jarayonida o‘qituvchining roli katta bo‘lib, "o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni

rag‘batlantirish, ularni o‘z ishi va kasbidan mammun bo‘lishini ta‘minlash lozim”dir.

O‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablari qondirilmas ekan, ularni o‘z kasbidan mammun bo‘lishlarini ta‘minlash qiyindir, ya’ni ularning mehnati bir so‘z bilan aytganda kutilgandek natija bermaydi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprel qonuni bilan fuqarolarning mehnatdagi samarali xizmati uchun, davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga "O‘zbekiston da xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi", "O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan fan arbobi", "O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan sport ustozisi" kabi faxriy unvonlarning ta’sis etilganligini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Mazkur faxriy unvonlarni topshirish esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti islohot arafasida qilgan nutqida maktablarning moddiy bazasi juda nochor ahvolda ekanligini, birinchi navbatda qishloq joylardagi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerakligini ta‘kidlagan va bunga juda dolzarb masala sifatida qaradi.

Qishloq bolalarining bugungi ahvoli qanday, ularda ta‘lim jarayoni qanday kechmoqda? Albatta, bu masalalarni yurtboshimiz ta‘kidlaganidek "birdaniga yechish qiyin, bu misollar bosqichma-bosqich»⁵⁰ amalga oshirilishi lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘limni isloh qilishda adabiyotlarning tutgan roliga alohida e’tibor qaratdi. Darsliklar "eski qolipda, mustabit davrida yozilgan"ligini bu esa o‘z navbatida bolalarning erkin fikr yurita olish qobiliyatlarining shakllanishiga to‘siq bo‘lishini isbotlab bergen edi.

Xalqaro hamkorlikda xorijiy tillarning tutgan o‘rni alohida bo‘lib, xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti alohida ta‘kidlab shunday dedi:

⁵⁰ Karimov. I.A., Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1999. – B.13.

"Ammo shunga alohida urg‘u berishimiz zarurki, chet tillarni o‘rganish min'bad ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo‘lmasligi lozim". Zero, "o‘z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go‘zal va lo’nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisning rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin."⁵¹

O‘ziga hech qanday chiroyli sharh talab qilmaydigan yuqoridagi g‘oyalarni o‘qib bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatliliga amin bo‘lamiz.

Mustaqil fikr yuritish demokratianing muhim ko‘rinishlaridan biridir, bu esa o‘ta dolzarb masala bo‘lib, bolalikdan ota-onas, ta’lim muassasalari va keng jamoatchilikdan bu masalaga katta mas’uliyat talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov islohoti arafasida bolalarning maktabda mustaqil fikr yurita olishga e’tibor berish lozimligining ahamiyatini isbotlab shunday deydi: -"demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi."⁵²

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti "demokratiya" bilan "erkin fikr yuritish"ning ajralmasligiga diqqatimizni qaratadi.

Zero, jamiyatda erkin fikr yuritish bo‘lmasa demak, demokratiya ham bo‘lmaydi, yoki aksincha, bular bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalardir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan o‘zbek modeli deb nom olgan islohotlarning asosini tashkil etadigan besh tamoyilning birida islohotlarni bosqichma-bosqich o‘tkazish g‘oyasi ilgari surilgan. Hozirgi kunda mazkur tamoyilning bizning hayotimizga qanchalik mos ekanligi barchamizga ma'lum.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov tomonidan ta’lim tarbiya sohasida belgilangan islohotlarni hayotga tadbiq qilishda ham yuqoridagi bosqichma-bosqichlik g‘oyasi tamoyil sifatida belgilanadi.

Bunda "o‘tish davri" bo‘lgan birinchi bosqich 1997-2001 yillarni o‘z ichiga oldi. O‘tish davri deyilganda ko‘z oldimizga bir tuzumdan, ikkinchi tuzumga, bir

⁵¹ Karimov. I.A. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1999. – B. 13.

⁵² Karimov. I.A. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1999. – B. 16.

ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tish va hokazolar keladi. Ammo ta’lim sohasidagi o‘tish davri ta’lim sohasi uchun butunlay yangi davrning, yangi sharoitlarning boshlanishini ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu davrda kadrlar tayyorlash tizimining «salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy- me'yoriy, ilmiy-metodik moliyaviy-moddiy shart sharoitlar yaratish lozim»⁵³ligini ilgari surdi.

Ikkinci bosqich – 2001-2005 yillarni o‘z ichiga olib, "bunda Milliy dasturni keng miqyosda to‘liq amalga oshirishga erishish" g‘oyasi ilgari surilgan.

Albatta, bunda birinchi o‘rinda ta’lim faoliyatining samaradorligini oshirish, mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olib, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, dastur g‘oyalari va qoidalariga kerakli o‘zgartirishlar kiritilishi lozimligi ta’kidlangan.

Uchinchi bosqich – 2005 yil va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda to‘plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e’tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti milliy dastur qoidalarini amalga oshirishda "shoshilmaslik", "og“ishmaslik", "izchillik" kabi g‘oyalarga e’tiborni qaratgan. Mazkur g‘oyalarga amal qilingandagina umumiyligi madaniyatni yuksaltirishimiz, yoshlarning jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topishiga xizmat qila olishimiz mumkin deydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’lim tizimining asosiy bosqichini tashkil etuvchi uzluksiz ta’lim tizimiga alohida e’tibor berish lozimligini, umumta’lim dasturlarini esa maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich umumiyligi ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tarzida tuzish, maqsadga muofiq bo‘ladi deydi. Oliy ta’limni bakalavrlik va magistraturaga bo‘linishi zarur deb hisoblaydi va yurtboshimiz ularni quyidagicha belgilab berdi: "bakalavrlik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bazaviy

⁵³ Karimov I.A., Barkamol avlod- orzusi. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. -B. 22.

oliy ta'lif berish demakdir va o'qish muddatining kamida 4 yil davom etishi, oliv ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomi olish bilan tugaydi; magistratura esa aniq mutaxassislik bo'yicha oliv kasbiy ta'lif bo'lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi, undagi tahsil esa magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi" deb belgilandi.

Shuningdek, oliv ta'lifning yakunlovchi bosqisi sifatida asperantura va doktoranturani belgiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kasbiy ta'lif – qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e'tibor berdi. Darhaqiqat, bu o'ta dolzarb masala bo'lib, busiz mamlakat kadrlarining sifati bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lif tarbiya tizimini isloh qilayotganda bir muhim masalaga katta e'tibor berishimiz lozimligini ta'kidladi, ya'ni olimlarning fikriga ko'ra, normal rivojlangan bolalarni 6 yoshdan maktabga qabul qilish ularning aqliy, ruhiy va jismoniy kamolati, o'quv dasturlarini yaxshi o'zlashtirishda ijobiy samara berishi mumkinligini, shuningdek bolalar 6 yoshdan o'qishga qabul qilishda ularni har biriga alohida yondashish, birinchi navbatda ularning salomatligi va zehni, shuuri qay darajada shakllanganligi e'tiborga olinishi kerakligiga e'tibor qaratgan.

Shu o'rinda mutaxassislar o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra Respublikamizda bolalarning 10-30 %i yuqori aytilgan sabablarga ko'ra, 6 yoshdan maktabga tayyor emasligi, bu o'rinda ayrim qishloq sharoitida o'sayotgan bolalarning tahminan 50%i mazkur sababga dahldorligi, bularning barchasini hisobga olgan holda bolalarni 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish (ularning jismoniy va aqliy yetukligini e'tiborga olgan holda) maqsadga muvofiq deb⁵⁴ belgilanadi.

Ikkinchi turdag'i uch yillik o'quv yurtlari, ya'ni kasb hunar o'quv yurtlari, zamonaviy kasb hunar bera olishi bilan oldingi PTU lardan tubdan farq qilishi kerak, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich

⁵⁴ Karimov I.A., Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:Sharq, 1999. -B. 28.

Karimov shunday deydi: - "...har bir hududning o‘ziga xos, jug‘rofiy, etnik xususiyatlaridan va extiyojlaridan kelib chiqib, bolalarning ota-onalari bag‘rida o‘qishi kasb hunar egallashi va shu bilan birga, bu bilim yurtlari o‘sha hududning madaniy ma'rifiy markaziga aylanishi lozim".

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan "har hududning o‘ziga xos, jug‘rofiy, etnik xususiyatlaridan kelib chiqishi" o‘ta dolzarb muammodir.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning ta’lim sohasidagi tajribalarini o‘rganar ekanmiz, shunga amin bo‘ldikki, ayniqsa Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda kasb hunar ta’limini egallovchilar asosan o‘zlari yashayotgan hududlardagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib ta’lim olishadi. Bu esa albatta ishsizlikning oldini oladi, shuningdek, ayrim tarmoqlardagi (ishlab chiqarishning) kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishning murakkab tomonlaridan biri sifatli o‘qituvchi kadrlar masalasi ekanligini ilgari surgan. Darhaqiqat, o‘qituvchilar ularning sifati, jahon tajribalariga asoslangan yangi o‘quv dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi masalasi o‘ta dolzarb muammodir. Ushbu muammoni yechish uchun Pedagogika institutlari va universitetlarida 3 yillik bilim yurtlari uchun o‘qituvchilarni tayyorlaydigan maxsus fakultetlarni tashkil etish lozim, viloyatlarda (har bir) esa 3 yillik bilim yurtlarida ishlashi mumkin bo‘lgan maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yuvchi alohida markazlar ochish zarurligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlagan edi.

Va nihoyat, ta’lim tarbiya sohasini tubdan isloh qilishda, davlat byudjeti miqdori (qo‘sishimcha sarf harajatlarning xajmi o‘tishi davrining o‘zida taxminan 65 milliard so‘mni tashkil etish)ni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz fuqorolarining har birining qalbida Millat, Vatan, Xalq istiqboli kabi muqaddas g‘oyalarning o‘rin olishi

lozimligini shunday ifodalaydi: -"Bizning avlodlarimiz hamisha uzoqni ko‘zlab yashagan, Millat, Vatan, Xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning to‘rida joy olib, har birimizning qalbimizda ongimizda, charx urib turishi darkor.

Chinakam xalq bo‘lsak, chinakam millat bo‘lsak, ulkan, qudratli daryoga aylanaylik, farzandlarimizga o‘zgalar havas qiladigan ozod va obod vatan qoldiraylik."⁵⁵

Biz mamlakatimiz prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishga qaratilgan g‘oyalarini ilmiy jihatdan o‘rganib chiqib quyidagicha xulosaga keldik: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov Respublikamiz ta’lim sohasining isloh qilinishi ijodkori va tashabbuskoridir.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning mamlakatimiz yoshlari to‘g‘risida jon ko‘ydirib, ularning kelajagi haqida qayg‘urishini quyidagi jumlalardan bilib olishimiz mumkin: -"men zamonaviy fikrlaydigan, vatanga sadoqat ruhida tarbiya olayotgan, jahon taraqqiyoti va madaniyati bilan hamdard bo‘lishga intilayotgan yuz minglab yoshlarimiz bilan bir qatorda hali shu darajaga yetmagan qanchadan-qancha farzandlarimiz ham borligini o‘ylasam, oldimizda naqadar katta muammolar turganini yaqqol tasavvur etaman."⁵⁶

O‘zbek xalqining jonkuyar farzandi, jamiyatimizning taraqqiyot yo‘llarini oldindan ko‘ra biluvchi, barcha sohalardagi islohatlarning asoschisi I. A. Karimovning ta’lim sohasini isloh qilishdagi beba ho hissasini o‘rganib chiqar ekanmiz, Prizidentimizning jamiyatimizda milliy g‘oyani shakllantirish to‘g‘risidagi quyidagi fikrlarni keltirib o‘tish joiz deb topdik: - "Bu haqda o‘ylaganda meni bir savol qiynaydi. Nega endi sho‘ro xukumati o‘z soxta g‘oyalarini omma ongiga

¹ Karimov I.A., Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston milliy ensoklopediyasi, 2000 yil –B. 30 .

² Karimov I.A., Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston milliy ensoklopediyasi, 2000 yil –B. 72.

singdira olardi-yu, biz esa xalqimizning asl manfaatlarini ifodalaydigan, uning faravon turmushi va baxtli kelajagi uchun xizmat qiladigan xaqqoniy milliy g‘oyalarni odamlarimiz ongiga singdira olmaymiz?

Menimcha, buning sababi shundaki biz demokratik jamiyat qurar ekanmiz, mafkuraviy zo‘rovonlikni rad etdik. Biz kishilarning siyosiy ongi, dunyoqarashini boshqarish emas, balki boyitish, yuksaltirish insoniylik ruhida umumjahoniy me'yorlar asosida tarbiyalash yo‘lidan bordik”⁵⁷.

Darhaqiqat, qariyib 70 yil xalqimiz mafkuraviy hxukumronlik zanjirida yashadi. Bu davr mafkuraviy hukumronlik barcha sohada hukumronlik qilgani singari ta’lim sohasini ham egallab olgan edi.

Prizidentimiz I.A. Karimovning ta’lim sohasini isloh qilishga qaratilgan nutqlari, ilmiy asarlarini o‘rganib, nazariy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagilarni bugungi kunimiz uchun o‘ta zarur deb ajratdik:

Birinchi, Qonun ustunligi bizning islohatlar modelimizdagи yetakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning assosiy mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinci, Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni hayotga tadbiq etishda bosqichma- bosqich o‘tkazish prinsiplarining qo‘yilganligi.

Uchinchi, ta’lim sohasida o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish.

To‘rtinchi, tarbiyanuvchilarda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Beshinchi, ta’lim turlarini tanlashda erkinlik.

Oltinchi, ta’limni isloh qilish davlatimizning ustivor vazifasidir.

yettinchi, ta’lim sohasini isloh qilishda xalqaro hamkorlikka e’tibor qaratish kabi dolzarb masalalar.

Prizidentimiz I.A. Karimov o‘zining ajoyib taxlil qobiliyati, keljakni oldindan ko‘ra olishi, nozik his etish iste’dodiga ega ekanligini quyidagi fikrlar orqali yaqqol

¹ Karimov I.A., Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston milliy ensoklopediyasi, 2000 yil –B.74.

tasavvur qila olamiz: ya'ni, kadrlar tayyorlash milliy dasturida nazarda tutilgan vazifalar to‘liq amalga oshgan taqdirda ular:

Birinchidan, "Ijtimoiy siyosiy iqlimga ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagи mavjud muhit butunlay o‘zgaradi;

Ikkinchidan, ta'larning yangi modeli ishga tushgach insonning hayotdan o‘z o‘rnini topishi tezlashadi;⁵⁸

Uchinchidan, ta'larning yangi modeli jamiyatimizda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. "o‘zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi"⁵⁹ deydi Prizidentimiz.

To‘rtinchidan esa ta'larning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda har bir insonda muayyan darajada intelektual salohiyat majudligini takidlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Agar shu ichki quvvatning to‘liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart –sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushunchalar va aqidalardan halos" bo‘lishini ta'kidlaydi.

Beshinchidan, "Biz fuqarolik jamiyat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo‘yildi. Ishonchim komilki, vaqt soati kelib, bugungi o‘tish davri uchun zarur bo‘lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o‘tadi"⁶⁰, deydi.

⁵⁸Saidov A., Tadjixonov U.,I.A. Karimov milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va xuquqiy madaniyat tug‘risida.—T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999. —B. 462.

⁵⁹Saidov A., Tadjixonov U.,I.A. Karimov milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va xuquqiy madaniyat tug‘risida.—T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999. —B. 462.

⁶⁰Karimov I.A., Jamiyatimiz mafkurasi xalqni- xalq, millatni - millat qilishga xizmat qilsin.—T.: O‘zbekiston, 1998. — B.22- 23.

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongi tafakkuri har xil tizimlarda ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo‘ladi. Bunday shijoatli yoshlarni tarbiyalash masalasi O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov asarlarida doim ustuvorlik kasb etib kelgan.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida qisqa muddat ichida ulkan bunyodkorlik va ma’naviy yangilanish ishlari olib borildi. O‘zbek xalqi jahon ma’naviyati xazinasini boyitgan ulug‘ allomalar merosxo‘ri sifatida ulkan madaniy, ma’naviy merosga ega bo‘ldi.

Ma’naviyat va ma’rifatda insonning iymoni, e’tiqodi, axloqi, hayotning ma’nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo‘ladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma’naviyat belgisidir. Ma’naviy barkamol inson - o‘zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi. Afsuski, joylarda madaniyat va ma’naviyat masalalariga yengil-yelpi qarash hollari mavjud. Bu boradagi ishlarni oxiriga yetkazish mas’uliyatini kimdir zimmasiga olishi kerak. Shu ma’noda, madaniyat va ma’rifat namoyandalari bilsinlarki, ma’naviyatning eng asosiy himoyachisi respublika Prezidenti bo‘ladi deya mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi Islom Karimov.

Shu ma’noda ma’naviyat masalasidagi ishlarmizni yanada takomillashtirish maqsadida jamiyat va davlat hayotida qabul qilingan har bir qonun hujjatlari ma’naviyatimizga zid bo‘lmasligi ta’minlandi, aksincha uning yanada takomillashishiga xizmat qildi. Chunki, ma’naviyat ishlarini yo‘lga qo‘ymasdan turib iqtisodiy yuksalishlarga erishish qiyin. Zero, yuksak ma’naviyati bo‘limgan xalqning kelajagi ham yo‘qdir.

Siyosiy ma’naviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan o‘zini o‘zi anglab yetgan xalq, millat mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch qudrati uning soni bilan o‘lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongning o‘sganligi, milliy g‘ururi, milliy hissiyoti, milliy tuyg‘uning qay darajadaligi, o‘z-

o‘zini anglab yetganligi, milliy uyushganligi bilan belgilanadi. Bu kabi xususiyatlarni millat va davlat o‘zida mujassam etishi uchun emas , har tomonlama yetuk bo‘lgan lider shaxslarga ehtiyoj tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasida ham bu kabi ehtiyoj I.Karimov va u kabi qator vujudida vatan mehri va xalq ishonchi uchun jo‘sh urayotgan qaynoq yuragi bor shaxslar hisobiga qondirilib, O‘zbekiston aholisini ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot sari olg‘a yetaklamoqda. Milliy o‘zlikni anglash millatning eng muhim belgisi, uning rivojlanishi va kelajagini ta'minlovchi omili hisoblanadi. Mustaqillikni qo‘lga kiritish o‘zbek xalqi hayotida milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi buyuk inqilob hisoblanadi. Albatta bu buyuk tarixiy voqeyani O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov shaxsi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ma'naviyat - uzlusiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg‘u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o‘laroq ma'naviyat ham doimo o‘zgarish va yangilanishda bo‘ladi. Ma'naviyat deganda avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan kuchni tasavvur qilish lozim. Bunga ishonch hosil qilish uchun bizning, aytaylik, 1991 yildagi ma'naviy saviyamiz bilan xalqimizning hozirgi ruhiy holati o‘rtasidagi farqni qiyoslab ko‘rish kifoya. Albatta, ma'naviyatning tosh-tarozisi, o‘lchovini topish qiyin. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda shunday. Lekin amaliy nuqtai nazardan yondoshganda, hayotdagi, jamiyat ongidagi o‘zgarishlarga nisbatan baho berganda, uning muayyan mezonlarini ifoda etish mumkin.

Bugun jamiyat oldida nihoyatda muhim, yurt kelajagini hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o‘z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko‘rinishlarini o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir. Men mana shunday insonlar haqida o‘ylar ekanman,

dunyoqarashi mustaqillik yillarida shakllangan yoshlarimizda kelajak ma'naviyatining umidbaxsh kurtaklarini ko'rish mumkin. Ularning kelajagiga katta ishonch va zavq bilan qarayman. Shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, erkin fuqarolik ma'naviyatining asosi bo'lmish ma'rifat masalasi doimiy e'tiborimizda bo'lishi shart.

Ma'naviyat sohasida yangi asrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishni aniqlab, o'zimizga reja qilib belgilab olar ekanmiz bir narsaga alohida ahamiyat berish kerak: bu maqsad va g'oyalar xalq ongiga singadimi, jamoatchilik ularni qo'llab-quvvatlaydimi yoki yo'qmi - hamma gap mana shunda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviyat ma'rifat masalasidagi harakatlari shunday hususiyatga egaki, bu boradagi fikrlar faqatgina g'oya holida qog'ozda qolib ketmasligi, quruq gap, quruq shior bo'lib qolmasligi lozim. Ularni amalga oshirish uchun bizga jonkuyar, beva-bechoraga achinadigan, o'z rizqini muhtoj kimsa bilan baham ko'rishga qodir, haqiqat va xalq manfaati yo'lida kurashlarga hamisha tayyor, mard, fidokor insonlar kerak.

Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozish natijasida olgan bilim va xulosalarimni umumlashtirib quyidagilarni taklif etaman:

- O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlaridagi madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarining mazmun mohiyatini muntazam o'qitib borish lozim.
- Ta'lim tizimida "Prezident asarlari bilimdoni" tanlovinci o'tkazish jarayonida madaniy ma'rifiy sohaga bo'lgan munosabatni yoritish malasiga alohida e'tibor qaratish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlaridagi madaniyat va ma'rifat masalasiga bo'lgan munosabatni aholi o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha mahalliy targ'ibot guruqlarini shakllantirish va bu jarayonga nodavlat notijorat tashkilotlar va o'zini o'zi boshqarish organlarini jalgan etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2011. – 128 b.
2. Karimov I.A.,O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li - T.:O‘zbekiston, 1992. – 254 b.
3. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida so‘zlangan nutq, 1993 yil 6 may
4. Karimov I.A., O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.1-tom. - T.: O‘zbekiston, 1994. – 78 b.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari./ Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 tom. T. O‘zbekiston, 1994. – 178 b.
6. Karimov I. A. Sog‘lom avlod - xalqimiz kelajagi. -T.: O‘zbekiston,1997. – 89 b.
7. Karimov I.A., Bunyodkorlik yo‘lidan.4-tom -T.: O‘zbekiston,1996. – 369 b.
8. Karimov I.A.,Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo‘q. / Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. -T.: O‘zbekiston, 1997. – 458 b.
9. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O‘zbekiston, 1998. – 358 b.
- 10.Karimov I.A., Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida.6-tom. -T.: O‘zbekiston, 1998. – 298 b.
- 11.Karimov I.A., Jamiyatimiz mafkurasi xalqni- xalq, millatni - millat qilishga xizmat qilsin.–T.: O‘zbekiston, 1998. – 164 b.

- 12..Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.-T.:O‘zbekiston, 1998. – 158 b.
- 13.Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998. – 287 b.
- 14.Karimov I.A., Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.: O‘zbekiston,1998. – 148 b.
- 15.Karimov I. A. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1999. – 489 b.
- 16.Karimov I.A. Kelajakni jasoratli odamlar quradi. // Xalq so‘zi. -1999 yil, - 17-fevral.
- 17.Karimov I.A. Barkamol avlod- orzusi. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – 689 b.
- 18.Karimov I.A., Inson uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-tom. –T.: O‘zbekiston. 2006. – 658 b.
- 19.Karimov I.A.,Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chiqurlashtirish ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-tom. -T.: O‘zbekiston, 2007. – 578 b.
- 20.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 148 b.
- 21.Karimov I.A. Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи tabrik so‘zi. -T.: O‘zbekiston, 2009. – 79 b.
- 22.Karimov I.A., Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin -T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
- 23.Karimov I.A., Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish -T.: O‘zbekiston. 2009.- 178 b.
- 24.Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O‘zbekiston, 2012. – 440 b.
- 25.Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. // Xalq so‘zi. 2012 yi l 19 may.

26. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1998. – 248 b.
27. Begmatov A., ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi.-T.: Sharq, 2000. – 117 b.
28. Jo'rayev N., Agar ogoh sen... –T.: Yozuvchi. 2001.- 245 b.
29. Qarshiboyev M. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 2008. – 98 b.
30. Quronov M "O'zbek mo'jizasi" ning yengilmas kuchi./Ma'naviy yuksalish yo'lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 87 b.
31. Leonid Levitin, Donold S. Korlayl. Islom Karimov- yangi O'zbekiston Prezidenti.-T.: O'zbekiston. 1996. – 147 b.
32. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar./ mas'ul muharrir Bo'ronov K. –T.: O'zbekiston. 2001. – 68 b.
33. Nazarov Q. Biz kutgan kitob /Ma'naviy yuksalish yo'lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 278 b.
34. Rasulov A. Global jarayonlar va ma'naviyat / Ma'naviy yuksalish yo'lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 112 b.
35. Saidov A., Tadjixonov U., I.A. Karimov milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va xuquqiy madaniyat tug'risida.–T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999. – 116 b.
36. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.-T.: O'qituvchi, 1995. – 78 b.
37. Toirov M. Ma'naviyat qalb chirog'i. / Ma'naviy yuksalish yo'lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboyev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 78 b.
38. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. -T.: Ma'naviyat, 2009. – 114 b.
39. Erkayev A. O'zlikni anglashga da'vat./Ma'naviy yuksalish yo'lida. Nashrga tayyorlovchi. Qarshiboev M. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 136 b.
40. www.gov.uz
41. www.lex.uz

42.www.google.ru

43.www.ziyonet.uz